

Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4 martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, “Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli” (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda-GSBPM)) va “Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (Generic Statistical Information Model (keyingi o'rinlarda – GSIM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu Uslubiy nizom aholi tomonidan noishlab chiqarish iste'moli uchun xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar iste'mol narx(tarif)larining statistika kuzatuvini tashkil etishni yanada takomillashtirish va sifatini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida iste'mol narxlari indeksini (keyingi o'rinlarda INI) aniqlash tartibini belgilaydi.

Uslubiy nizomni ishlab chiqishda “Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: Nazariya va amaliyot” (Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevropa hamjamiyati statistika byurosi (Yevrostat), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YeIK), Butunjahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)) asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Uslubiy nizomni ishlab chiqishda XVJ va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan texnik ko'mak missiyalari ekspertlarining tavsiyalari hisobga olingan.

INI iste'mol sektorida inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi hamda davlatning moliya va pul-kredit siyosatini amalga oshirishda, iqtisodiyotda narx jarayonlarini tahlil va prognoz qilishda, aholiga eng kam ijtimoiy kafolatlarni qayta ko'rib chiqishda, ayrim huquqiy bahs-munozaralarni hal etish va hokazolarda foydalanilishi mumkin.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy qilish GSIMga muvofiq, “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma”da nazarda tutilgan bosqichlar asosida amalga oshirilgan.

Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflardan foydalaniladi:

narx – tovar birligi miqdori uchun ma'lum bir valyuta (milliy yoki xalqaro) pul birligida ifodalangan tovar qiymatining ifodasi;

ro'yxatga olish narxi – sifati, sotish shartlari va davr oralig'i aniq belgilangan muayyan bir tovar, mahsulot yoki xizmat turiga to'langan pul birligi miqdori;

narxlarni ro'yxatga olish – iste'mol sektorining namunasi sifatidagi tovar (xizmatlar)ning shakllantirilgan to'plamiga kirgan tovar (xizmat)lar narxlari to'g'risida ma'lumot to'plash uslubi;

o'rtacha narx – ma'lum vaqt yoki makondagi bir turga mansub tovarlar guruhidagi narxlarning o'zgarishini umumlashtirish xarakteridagi narx. Statistik tajribalarga asosan, dastlabki ma'lumotlar hamda ularning shakllantirish tartibiga ko'ra o'rtacha narxlarni hisoblashning turli usullari mavjud.

indeksning bazis (tayanch) davri – narx indeksi qiymati yuz foizga teng miqdorda qabul qilinib, oylik narx indeksleri uzviy bog'lanadigan davr;

tayanch yilning dekabriga nisbatan narx indeksi – joriy narxning mos ma'lumotlar bazasiga (bazaviy yil dekabriga) nisbatan qabul qilingan davr bahosiga nisbati sifatida hisoblab chiqiladigan narx indeksidir. Doimiy ravishda indekslar taqqoslanadigan davr ma'lum yilning dekabr oyi bo'lib hisoblanadi.

namuna (vakil) tovar – namuna tovar deganda, tovar (xizmat)larning sifati va asosiy iste'mol xususiyatlariga ta'sir ko'rsatmaydigan darajada bir-biridan o'ziga xos xususiyat (tavsif)lariga ko'ra unchalik katta bo'lmagan holda farqlanadigan, shuningdek, o'zining iste'mol vazifasi bo'yicha bir xil bo'lgan ma'lum bir tovar (xizmat) turlari yig'indisi tushuniladi. Tovarlarni hududlar darajasida tavsiflashda, qaysi tovar baholanishi kerakligini ko'rsatuvchi vosita bo'lib hisoblanuvchi tasniflardan foydalaniladi;

tanlash (tanlov yig'indisi) – namunaviy (reprezentativ) bo'lishi, umumiy yig'indining (barcha kuzatuvlar yig'indisining) o'ziga xos xususiyatlari hamda mutanosibligini to'liq va aynan bir xil aks ettirib berishi lozim bo'lgan cheklangan kuzatuvlar sonining yig'indisi;

mavsumiylik – yilda vaqt almashinishi, boshqali mahsulotlar, sabzavot va mevalarning yetilishi davri hamda ularni qayta ishlaniishi, ma'lum ishlarning bajarilishi, shuningdek, urf-odatlar, bayramlar va shu kabi boshqa omillar bilan bog'liq takrorlanuvchi o'zgarishlar;

salmiq vazn – tovarlar va xizmatlarning umumiy narx ko'rsatkichi doirasidagi nisbiy ahamiyat o'lchovi. Bu ulush uy xo'jaliklari xarajatlarining umumiy miqdorida tovarlar va xizmatlarni sotib olish xarajatlari ulushini tavsiflaydi;

narx indeksining salmoq vazni – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o‘lcham. Mazkur ko‘rsatkichlar yordamida:

a) kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig‘indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;

b) avvaldan o‘zaro solishtirib bo‘lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;

d) qo‘llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o‘rganilayotgan hodisa bo‘yicha narx o‘zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.

tayanch davr salmog‘i – narx indeksleri hisob-kitobida salmoq vazn ko‘rsatkichlari uchun xizmat qiluvchi davr;

hudud – tovarlar (xizmatlar) narxlari kuzatuv amalga oshiriladigan joy (viloyat, shahar, tuman);

iste‘mol narxlari indeksi (INI) – inflyatsiya darajasini ifodalaydigan muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, bu o‘rtacha iste‘molchi tomonidan ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan iste‘mol uchun sotib olingan tovarlar va xizmatlar majmui qiymatining umumiy o‘zgarishini hisoblaydi, ya’ni, ma’lum davr mobaynida, tovarlar va xizmatlar iste‘moli miqdorining o‘zgarish bo‘lgan holatida, aholining iste‘mol xarajatlari umumiy miqdorining o‘zgarishini ifodalaydi. INIda, mamlakatning barcha hududlari bo‘yicha turli tovarlar va xizmatlar narxlarining harakati o‘rtacha darajaga keltiriladi.

2. INIni hisoblash, narxlar kuzatuv metodologiyasi va instrumentariysini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, shuningdek, INIni bevosita hisoblash O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi. Hududiy statistika boshqarmalari tomonidan shaharlar va tumanlar, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, shuningdek, aniq tavsifga ega tovarlar va xizmatlar tanlovi, ro‘yxatga olish hamda birlamchi ma’lumotlar tahlilini nazoratga olgan holda ma’lumotlar bazasini shakllantirish va uni elektron tarzda taqdim etish bo‘yicha kerakli ma’lumotlar tayyorlanadi.

3. INIni hisoblash quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

a) iste‘mol bozorida tovarlar va xizmatlarni sotish joyida ro‘yxatga olish usuli bo‘yicha olingan narxlarning o‘zgarishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

b) aholining haqiqiy iste‘mol xarajatlari tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

4. Kuzatuv respublika hududlaridagi savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarida, shuningdek, buyum, aralash va oziq-ovqat bozorlarida amalga oshiriladi.

5. Yig‘ma iste‘mol narxlari indeksini hisoblash, bazis davrining salmog‘idan foydalangan holda, modifikatsiyalangan Laspeyres formulasi orqali amalga oshiriladi. INIning hisoblash jarayonida salmoq sifatida, oilalarning tovarlar va xizmatlar sotib olish xarajatlari to‘g‘risidagi uy xo‘jaliklarining kuzatuv natijasida olinadigan aholining iste‘mol xarajatlaridan foydalaniladi.

6. Iste‘molchilar doimo o‘z xarajatlarini o‘zgaruvchan bozor sharoitiga moslashtirib boradilar, aholining alohida olingan tovarlar va xizmatlari iste‘moli tarkibi sezilarli tarzda o‘zgarib turadi. Shuning uchun, INIning hisoblashda foydalaniladigan salmoq tarkibi, uy xo‘jaliklari budjetlari kuzatuv so‘nggi ma‘lumotlari asosida har yili yangilanib boriladi.

2-bob. Kuzatuv vositalari

7. Iste‘mol narxlarini ro‘yxatga olish har yili agentlikning Ekspert-tahlil guruhi tomonidan tasdiqlanadigan “Tovar (xizmat)lar iste‘mol narx (tarif)larini ro‘yxatga olish blankasi” asosida planshet qurilmalari va maxsus dasturiy ta‘minotdan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Mazkur shakl GSIMga muvofiq Statistika dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi hamda Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanmada belgilangan qoidalar asosida ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Narxlarni ro‘yxatga olish jarayonlarini yengillashtirish hamda narx registratorlari uchun qulayliklar yaratish maqsadida, planshet qurilmalaridagi maxsus dasturiy ta‘minot interfeysi kuzatuv mohiyatidan chetlashmagan holda o‘zgartirilishi mumkin.

8. Zarur holatlarda ro‘yxatga olish ishlarida o‘rnatilgan tartib asosida tasdiqlangan hujjatlar va savolnomalardan foydalanish mumkin.

3-bob. Tovarlar va xizmatlar iste‘mol narxlari yuzasidan statistika kuzatuvlarini tashkil etishning asosiy bosqichlari va INIning hisoblash

9. Narxlar to‘g‘risidagi boshlang‘ich ma‘lumotlar barcha indeks hisob-kitoblari uchun asos bo‘ladi. Ular asosida narxlarning dastlabki individual indeks ko‘rsatkichlari shakllanadi.

10. Iste‘mol bozorida tovarlar va xizmatlarning narx va tariflari darajasini ro‘yxatga olish, tanlanma statistika kuzatuv tamoyillariga asoslanadi hamda hududlar, savdo obyektlari, tovarlar va xizmatlar, ular turlarining faqatgina bir qismini qamrab oladi. Narxlar ro‘yxatga olinadigan savdo obyektlari, tovarlar va xizmatlarga nisbatan tanlanma ko‘lami va tanlov uslubi, kuzatilayotgan

narxlarning reprezentativ xarakterini va indekslarning haqqoniyligi bo'yicha talablarga rioya qilish uchun yetarliligini ta'minlaydi. Narx va tariflarni kuzatish bo'yicha tanlov, iste'molchilar xarid qila oladigan tovarlar va xizmatlarning har biriga tegishli savdo va pullik xizmat ko'rsatish sohasi obyektlarining soni, turi va geografik qamrovini, shuningdek, tanlab olingan obyektlar o'rtasida narx va tariflarning bir-biridan farq qilishini aks ettiradi.

11. GSBPMga muvofiq, INIni bevosita shakllantirish to'plash (GSBPMning IV bosqichi), qayta ishlash (GSBPMning V bosqichi), tahlil qilishni (GSBPMning VI bosqichi) nazarda tutuvchi bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Shakllantirilgan ma'lumotlarni keyinchalik e'lon qilish GSBPMning VII bosqichiga muvofiq amalga oshiriladi.

INIni shakllantirish quyidagi bosqichlar va jarayonlardan tashkil topgan:

a) tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari kuzatuvi o'tkaziladigan hududlarni tanlab olish;

b) bosh to'plam asosida narx kuzatuvlari o'tkaziladigan kuzatuv obyektlari va vakil tovar (xizmat)lar tanlanmasini shakllantirish (GSBPM modelining 4.1-jarayoni);

d) narxlarni ro'yxatga olishning asosiy tamoyillariga amal qilinishini ta'minlagan holda narx ma'lumotlarini to'plashni tashkil etish, o'tkazish va yakunlash (GSBPM modelining 4.2 va 4.4-jarayonlari);

e) integratsiya, tasniflash va kodlashtirish, tekshirish, ma'lumotlarni tahrirlash va shartli hisob kitoblarni o'tkazish, vaznlar tizimini shakllantirish, ma'lumotlarni umumlashtirishni nazarda tutadigan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni (GSBPM modelining 5.1-5.8-jarayonlari);

f) dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash, tekshirish, statistik ma'lumotlarga izohlar va tushuntirishlar tayyorlash, birlamchi ma'lumotlarni identifikatsiyalashni oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish va INI shakllantirishni yakunlash (GSBPM modelining 6.1-6.5-jarayonlari).

4-bob. Hududlar tanlanmasini shakllantirish

12. Iste'mol narxlari kuzatuvi Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahri hududlarida o'tkaziladi. Narxlar bo'yicha ma'lumotlar Nukus va Toshkent shaharlarida, viloyat markazlarida hamda tanlama asosda mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, geografik joylashuvi hamda iste'mol bozorining tovarlar va xizmatlar bilan yetarlicha ta'minlanganlik darajasini aks ettirishini hisobga olgan holda tanlab olingan shaharlar va tumanlar markazlarida yig'iladi.

Vakillikni (reprezentativlikni) ta'minlash uchun hududlar kesimida savdo aylanmasi va uning tarkibi, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, aholi soni, shahar va tumanlar orasidagi masofa, viloyat markazidan uzoqligi va boshqa tegishli ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Hududlarning tanlovi bir necha yil mobaynida deyarli o'zgarmaydi va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati o'zgarishidan kelib chiqib, yangilanishi mumkin.

13. Hududlarda narxlarning kuzatuvini amalga oshirish uchun shahar va tumanlarni tanlab olish, agentlik tomonidan hududiy statistika organlari bilan birgalikda, quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

narxlarning kuzatuvini amalga oshirish uchun tanlab olingan shahar va tumanlar hududlarning o'ziga xos geografik xususiyatlarini aks ettirishi (qo'shni davlatlar bilan chegaraoldi hududlarda savdo yaxshi rivojlangan bo'lishi, ishlab chiqarish yoki qishloq xo'jaligiga moslashtirilgan hududlarda mahsulotlarning bozor narxlari shakllanishi va boshqa) va uning turli qismlarida joylashgan bo'lishi lozim;

tanlovga bir-biriga va hudud markaziga yaqin joylashgan shahar va tumanlar kiritilmasligi kerak, agar mazkur shahar va tumanlarda narx o'zgarishi va darajasida katta farq bo'lmasa;

narx kuzatuvini uchun tanlangan shahar va tumanlar, oylik kuzatuv uchun qabul qilingan ro'yxatga kiritilgan tovarlar va xizmatlar bilan muntazam to'ldirish imkoni mavjudligini tavsiflashi lozim;

hududlar tanlovida shuningdek, hududda qo'shni shahar va tumanlar aholisi orasida doimiy yuqori talabga ega savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarining mavjudligi, shu bilan birga, boshqa tuman va shaharlarda mavjud bo'lmagan savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari hamda tovarlar va ko'rsatiladigan pullik xizmatlar turlarining mavjudligi kabi omillar ham hisobga olinadi.

Ishlab chiqilgan mezonlarga asosan, tovarlar va xizmatlar narxlari darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida hududlar ro'yxati shakllantiriladi (3-ilova).

5-bob. Savdo va pullik xizmat sohasi obyektlari tanlanmasini shakllantirish

14. Savdo va pullik xizmat sohasi obyektlarini tanlash hududiy statistika organlari tomonidan mazkur Uslubiy nizomning 16-22- bandlarida keltirilgan mezonlar doirasida amalga oshiriladi. Shakllantirilgan savdo va pullik xizmat sohasi obyektlari ro'yxatlari agentlik markaziy apparatiga taqdim etiladi.

15. Narxlar kuzatuvini uchun savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarini tanlab olishda Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYADR) ma'lumotlari, shuningdek, mavjud statistika hisoboti (tovarlar va xizmatlarni sotishdan tushgan tushum, sotilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi va boshqalar) hamda boshqa idoraviy axborot bazalari ma'lumotlaridan savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarining faollilik holati, yuridik rekvizitlari va kuzatish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni aniqlashda foydalaniladi.

16. Narx (tarif) darajasi va uning o'zgarishi to'g'risida obyektiv ma'lumot olish maqsadida, narxlarni ro'yxatga olish uchun savdo va pullik xizmat sohasi obyektlari tanlovi shunday amalga oshirilishi zarurki, ushbu tanlov natijasi, imkon qadar savdo va pullik xizmat ko'rsatish sohasining o'ziga xos mahalliy xususiyatini aniq aks ettirsin. Xususan, kuzatuvga savdo (xizmat ko'rsatish)ning turli xil shartlariga ega savdo korxonalari kiritilishi uchun, unda shahar (tuman)ning ham markaziy qismida, ham chekka qismida joylashgan, hajmi jihatidan (yirik, o'rta va kichik) farqlanadigan savdo (xizmat ko'rsatish) nuqtalari ishtirok etishi zarur.

17. Tovarlar va xizmatlar narxlari va tariflari kuzatuvni savdo va pullik xizmat ko'rsatish sohasi obyektlarida (kiyim-kechak, aralash va oziq-ovqat bozorlari hamda do'konlarida, gipermarket, supermarket, minimarketlarda va h.k.), shuningdek, ko'chma savdo (palatka, kiosk va h.k.) joylarida ham amalga oshiriladi. Tanlanma kuzatuvga barcha tashkiliy-huquqiy shakldagi korxona hamda tashkilotlar, shuningdek, chakana savdoda faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar ham kiritiladi.

18. Turli tashkiliy-huquqiy shakldagi savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlarini tanlashda ularning savdo yoki pullik xizmat ko'rsatish hajmidagi (savdo va xizmat ko'rsatish statistikasi ma'lumotlari bo'yicha) nisbatini e'tiborga olish, shuningdek, ham do'konlarning, ham bozorlarning mutanosib qamrovini ta'minlash lozim.

19. Tanlab olingan do'konlar tarkibida albatta ham universal, ham ixtisoslashgan do'konlar, ya'ni xo'jalik, kitob, maishiy texnika va boshqa turdagi do'konlar bo'lishi zarur.

20. Sotilayotgan tovarlar va xizmatlar narxlari hudud bo'yicha o'rtacha narx darajasidan sezilarli yuqori bo'lgan savdo va pullik xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari (firma do'konlari, salon-do'konlar), mazkur obyektlar aholi o'rtasida ommabop bo'lgan taqdirda tanlovga kiritilishi mumkin.

21. Shahar (tuman)ning turli hududlarida joylashgan va yagona savdo tarmog'i (firma) tarkibiga kiruvchi yirik savdo obyektlarida tovarlarning narxlari kengaytirilgan ro'yxat bo'yicha qayd etiladi. Bunda, kuzatuv uchun tanlab olingan firma do'konlarida ro'yxatga olingan narxlar soni ushbu firmaning shahar (tuman)da joylashgan barcha do'konlarida sotilgan tovarlar hajmining qiyosiylikini ifodalashi lozim.

22. Chakana savdo bozorlarida kuzatuvni amalga oshirishda, kuzatuv obyekti ro'yxatiga kuzatilayotgan barcha savdo nuqtalari, ularning manzili va sotilayotgan tovarlar guruhi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.

Masalan, "Qo'yliq dehqon bozori", Farg'ona yo'li ko'chasi, savdo shahobchalari:

a) 1-savdo qatori, 5-joy – baliq mahsulotlari;

b) 2-savdo qatori, 12-joy– kolbasa mahsulotlari, pishloqlar, sut mahsulotlari, sariyog‘;

v) 3-savdo qatori, 6-joy– qandolat mahsulotlari, choy, kofe, makaron va yorma mahsulotlar.

23. Savdo va pullik xizmat ko‘rsatish sohasi obyektlari almashganda yoki yangi savdo obyektlari kuzatuvga kiritilganda mazkur ro‘yxat yangilanadi.

Qoida tariqasida, zarur holatlarda savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarini yangilash va almashtirish har yili yil boshida salmoq vaznlar tarkibini yangilash bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Biroq, obyektlar uzoq vaqtga yopilgan yoki tugatilgan taqdirda, ularni almashtirish yil davomida ham amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun yangi savdo obyektlari (xizmatlar sohasi)ni tanlash tavsiya etilib, bunda tovarlar assortimenti, narx darajasi, tovarlarni (xizmatlarni) sotish shartlari yil boshidagi asosiy narx kuzatuviga kiritilgan va almashtirilayotgan obyektlardagi holatga mos bo‘lishi zarur.

Shuningdek, narx kuzatuvida qatnashayotgan savdo (xizmat sohasi) obyektida muayyan mahsulot sotish (xizmat ko‘rsatish) to‘xtatilganligi sababli shu mahsulot (xizmat) narxini (tarifini) ro‘yxatdan o‘tkazish imkoni bo‘lmasa, bunday savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari almashtirilishi mumkin.

Bunday vaziyatda, ushbu obyektida tegishli mahsulot (xizmat) kelgusida sotilmasligiga, narx (tarif)ni almashtirish yoki narx o‘zgarishini baholash uchun shunga o‘xshash tovar (xizmat)ni olishning iloji yo‘qligiga ishonch hosil qilish kerak.

6-bob. Namuna tovar (xizmat)larni tanlanmasini shakllantirish

24. Narxlar kuzatuvini amalga oshirishda va INIni hisoblashda asos bo‘ladigan tovarlar va xizmatlarning iste‘mol to‘plami, aholi tomonidan eng ko‘p iste‘mol qilinadigan tovarlar va pullik xizmatlar guruhlarini O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlari uchun yagona bo‘lgan reprezentativ tanlovini ifodalaydi. Ushbu to‘plam agentlik tomonidan Maqsadlar bo‘yicha individual iste‘mol tasniflagichi (MIIT–2018), shuningdek, uy xo‘jaliklarining iste‘mol xarajatlari tarkibi ma‘lumotlari asosida shakllantiriladi va ma‘lum vaqt davomida o‘zgarishsiz qoladi (bir yildan kam bo‘lmagan muddatda).

25. Narx va tariflarni ro‘yxatga olishda namuna-tovarlar (xizmatlar)ni to‘g‘ri tanlash, narxlar o‘zgarishi to‘g‘risidagi obyektiv ma‘lumot olishning muhim bosqichlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Iste‘mol xususiyatlarining yetarlicha umumiy ta‘rifiga ega bo‘lgan namuna-tovarlar va xizmatlar tavsifi agentlik tomonidan markazlashtirilgan holda belgilanadi.

26. Ushbu ro‘yxatda aynan aniq bir tovar (xizmat)lar emas, balki, o‘zining tarkibi va iste‘mol maqsadlariga ko‘ra bir xil bo‘lgan tovarlar va xizmatlar turlari aks ettiriladi. Aniq tavsifga ega muayyan tovar va xizmat turlari bevosita narx registratorlari tomonidan tanlanishi kerak.

27. To'plamga ommaviy iste'mol tovarlari va xizmatlar, shuningdek, foydalanish ixtiyoriy bo'lgan alohida tovarlar va xizmatlar (yengil avtomobillar, oltindan yasalgan zargarlik buyumlari, yengil avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va h.k.) kiritilgan. Tovarlari va xizmatlarni tanlash ularning aholi iste'molida muhimligi jihatidan, bir turdagi tovarlar narxlarining o'zgarishini aks ettirishi mumkinligi, ularning sotuvda barqaror mavjud bo'lishi nisbati hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

28. To'plamga yangi tovarlar va xizmatlar kiritilishining mezonlari, ularning aholi umumiy iste'mol xarajatlaridagi ulushi hisoblanadi. Yangi turdagi tovarlar va xizmatlar, ularning aholi umumiy iste'mol xarajatlaridagi ulushi 0,1 foizdan kam bo'lmagan hollarda iste'mol narxlari kuzatuv ro'yxatiga kiritiladi.

Ba'zi hollarda kuzatuv to'plamiga aholining umumiy iste'mol xarajatlarida kamroq ulushga ega bo'lgan tovar (xizmat)lar kiritilishi mumkin. Bunday holatlarga masalan, ma'lum bir hudud yoki umumiy respublika uchun mahsulot (xizmat)ning ijtimoiy ahamiyati, tarmoq boshqarmalari tomonidan statistik hisob-kitoblarni amalga oshirish maqsadida mahsulot(xizmat)larning INI ma'lumotlariga ehtiyojning paydo bo'lishi va boshqalar kiradi.

29. O'zbekiston Respublikasida narxlar kuzatuvlari 4-ildan muvofiq, iste'mol savati to'plamiga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo'yicha amalga oshiriladi.

30. Hisob-kitoblar uchun tovarlar va xizmatlar tuzilmasi Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi (MIIT-2018)ga asoslanadi.

31. Narx va tariflar darajasi hamda dinamikasini kuzatish, aniq iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan alohida tovarlar va xizmatlar bo'yicha olib boriladi.

Kuzatuvning umumiy tamoyillari Uslubiy nizomning 1-ildasida keltirib o'tilgan.

32. Iste'mol narxlari kuzatuvda ishtirok etish uchun tanlab olingan har bir hudud (shahar, tuman) bo'yicha davlat statistika organlarining ro'yxatga oluvchilari iste'mol savati to'plamiga kiruvchi tovar (xizmat)larga bo'lgan talab va taklifning ommaviyligi va muntazamligini hisobga olgan holda sotuvda mavjud tovarlar (xizmatlar) doirasida alohida tovar (xizmat)larni mustaqil ravishda tanlaydilar. Ular ma'lum bir iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan muayyan shahar (tuman) iste'mol bozorida katta ulushni egallab turgan va uzoq vaqt davomida sotiladigan namuna-tovarlar (xizmatlar) guruhining umumiy tavsifini batafsil yoritib beradilar.

33. Kuzatuv tarkibiga mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlar bilan birgalikda import tovarlar ham kiritiladi.

Ro'yxatga oluvchilar narxlarni kuzatish uchun namuna tovarlar tanlovini amalga oshirayotganda savdo obyektlarida taklif etilayotgan tovarlarning xususiyatlarini batafsil o'rgangan holda, ularni, shu jumladan, tovarning mahalliy ishlab chiqarilganligi yoki import qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tovar kartochkasining tegishli satrlarida qayd etadilar.

34. Tovar (xizmat)lar tanlovida quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

yig'ilgan ma'lumot mumkin qadar har bir tovarning barcha doimiy ommaviy sotish joylarini, jumladan, barcha tashkiliy-huquqiy shakldagi do'kon va kiosklarni, shuningdek, bozor va ko'chalardagi savdo qilish joylarini ham qamrab olishi zarur;

ma'lum turdagi tovar (xizmat)ni tanlab olinishida birinchi navbatda uning kelgusi oylar davomida ham aholi uchun sotuvda bo'lishi ehtimoliga alohida e'tibor berish zarur;

tovarlar (xizmatlar)ni tanlashda ro'yxatga oluvchining individual dididan kelib chiqib emas, balki odatiy iste'mol uchun xos bo'lganini tanlash lozim. Do'kon sotuvchisi bilan suhbatlashgan holda, iste'mol narxlari kuzatuviga kiritilgan qaysi tovarga aholi tomonidan eng ko'p talab bildirilayotganligini aniqlash mumkin;

alohida turdagi kiyim-kechak va oyoq kiyim narxlarini kuzatish uchun tanlovda birinchi navbatda o'ta zamonaviy tovarlarga emas, balki, uzoq muddat davomida narxlar kuzatuvini o'tkazish mumkin bo'lgan, zarur hollarda eskirgan modellar narxini kuzatishni oldini olish maqsadida ularni o'zgartirish bilan birga, alohida e'tiborni an'anaviy yo'nalishdagi modellarga berish tavsiya etiladi;

kelgusida ma'lumot to'plash uchun tanlangan tovar (xizmat) xususiyatlarini batafsil tavsiflash lozim. Narxlarni ro'yxatga oluvchi yangi xodim, tovar (xizmat)ning iste'mol narxi (tarifi)ni ro'yxatga olish blankasi elektron shaklida berilgan xususiyatdan foydalangan holda, ushbu tovar (xizmat)ni xatosiz aniqlay olishi zarur;

kelgusi oylarda ba'zi tovar (xizmat)lar narxi to'g'risida ma'lumot yig'ish mumkin bo'lmagan holat aniqlansa, kuzatilayotgan tovar (xizmat)lar assortimentiga o'zgartirish kiritish yoki savdo nuqtasini almashtirish lozim.

35. Alohida turdagi tovarlarning narxlari yuzasidan statistik kuzatuvning asosiy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari Uslubiy nizomning 2-ilovasida keltirilgan.

7-bob. Hudud (viloyat) bo'yicha o'rtacha narxlarni hisoblash va ma'lumotlarni uzatish

36. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha o'rtacha narx, kuzatuv uchun tanlab olingan shahar (tuman)lardagi barcha savdo va pullik xizmat sohasi obyektlari bo'yicha ro'yxatga olingan narx (tarif)lardan o'rtacha geometrik ko'rsatkich ko'rinishida hisoblanadi.

Taklif qilinayotgan mavjud har bir tovar (xizmat) nomlari bo'yicha har bir shahar (tuman)dan 2-3 tagacha va viloyat markazidan 5-6 tagacha narxni olish yetarlidir.

Kuzatuv uchun tanlangan viloyat, shahar (tuman), ma'muriy markazning iste'mol bozorida tovar yoki xizmat keng miqyosda taqdim etilmagan hollarda, narx takliflari soni kamayishi mumkin.

Narxlar (tariflar) sonining qisqarishi tovar (xizmat)ning narxi butun tuman, shahar, yoki ma'muriy markaz, hudud yoki respublikaning hududida bir xil bo'lgan vaziyat bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

37. Hudud uchun taqdim etiladigan vakil-tovar (xizmat)ning o'rtacha narxlari indekslarini aniqlash uchun narxning (tarifning) o'rtacha geometrik qiymati formulasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\overline{P_i^j} = \sqrt[n]{P_{i(1)}^j \times P_{i(2)}^j \times \dots \times P_n^j},$$

bu yerda:

$\overline{P_i^j}$ – hudud bo'yicha (j) tovar (xizmat)larning o'rtacha narxi (tarifi) (i);

P_i^j – “muomaladagi narx” deb nomlanuvchi turli savdo tashkilotlarida (xizmat ko'rsatish sohasida) (j) aniq iste'mol xususiyatiga ega tovar (xizmat)larning ro'yxatga olingan narxi (i);

n – muomaladagi narxlar soni.

38. INI hisob-kitoblari uchun ma'lumotlar bazasi quyidagi manbalardan shakllanadi;

a) har oyda qayd etilgan iste'mol narxlari va tariflari bo'yicha ma'lumotlar ro'yxatga oluvchi tomonidan amaldagi dasturiy ta'minotda o'rnatilgan “Tovar (xizmat)lar iste'mol narx (tarif)larini ro'yxatga olish blankasi”ning elektron shakliga muvofiq planshet qurilmasiga kiritiladi.

b) narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda narxlarni idoraviy axborot tizimlaridan integratsiya qilish va internet resurslaridan avtomatik tarzda olish imkoniyati mavjud bo'lgan hollarda olingan ma'lumotlar;

d) kuzatiladigan alohida xizmat turlari bo'yicha narxlar o'zgarishlari hisob-kitoblarida ushbu xizmatlarni ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari.

Kiritilgan ma'lumotlar asosida agentlikning ma'lumotlar bazasida avtomatik ravishda hududlar bo'yicha tovarlar va xizmatlarning o'rtacha narxlari shakllanadi.

39. Shakllangan ma'lumotlar bazasi asosida agentlik tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

olingan ma'lumotlarning sifatini nazorat qilish, hududlar, tovarlar va xizmatlar bo'yicha o'rtacha qiymatlar va ularning o'zgarishini tahlil qilish, narx (tarif)lar o'zgarishi sabablarini aniqlash maqsadida hududiy statistika boshqarmalari bilan ishlash;

respublika, hududlar bo'yicha o'rtacha narx va tariflarning umumiy yig'ma natijalarini shakllantirish, tovarlar va xizmatlar guruhi hamda alohida tovarlar va xizmatlar bo'yicha indeksni hisoblash;

Statistika dasturida belgilangan muddatlarda foydalanuvchilarga ma'lumotlarni taqdim etish;

hisoblangan narx (tarif) indekslarini hududiy statistika boshqarmalariga yetkazish.

8-bob. Umumlashtirilgan INini hisoblash uchun salmoq vaznlarni shakllantirish tartibi

40. O'zbekiston Respublikasi hududidagi uy xo'jaliklarining tanlanma kuzatuv asosida shakllantirilgan uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari to'g'risidagi yakuniy ma'lumotlar bazasi, aholining iste'mol xarajatlari tarkibini shakllantirish, shuningdek, yig'ma INini hisoblash uchun salmoq vaznlar tizimini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'lchash tizimlarini shakllantirish Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda Uslubiy nizomga 5-ildavda keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

41. Uy xo'jaliklari iste'mol xarajatlari, iste'mol tovarlari va xizmatlarini sotib olishga yo'naltirilgan pul xarajatlarning bir qismi bo'lib hisoblanadi.

Uy xo'jaliklarining pul xarajatlari – kuzatuv o'kazilayotgan ma'lum davr mobaynida uy xo'jaliklari a'zolari tomonidan sarflangan haqiqiy xarajatlarning yig'indisini, shuningdek, iste'mol xarajatlari va iste'mol bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarni ham o'z ichiga oladi.

Umumiy pul ko'rinishidagi xarajatlardan farqli ravishda, uy xo'jaliklari iste'mol xarajatlari sarmoya jamg'armalar, investitsiya qilish maqsadida sarflangan tovarlar va xizmatlar narxi qo'shib hisoblanmaydi, shuningdek, aniq bozor narxi mavjud bo'lmagan tovarlar ham bundan mustasno emas (shaxsiy tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari iste'moli). Jumladan, iste'mol xarajatlari tarkibiga, san'at asarlari va antikvariat sotib olish xarajatlari, asosiy kapitalga sarmoya hisoblanadigan turar joy va qo'shimcha xonalarni qurish hamda kapital ta'mirlash uchun sarflangan materiallar va ish haqi to'lovi xarajatlari kiritilmaydi. Aholi iste'mol xarajatlari tarkibiga daromad solig'i, jamg'armalar, pensiya jamg'armalariga badallar ham kiritilmaydi.

42. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha barcha tovarlar pozitsiyalari va jamlashning (agregatsiyalash) turli darajalari uchun salmoq vaznlarini shakllantirish agentlik tomonidan hududlar bo'yicha uy xo'jaliklari xarajatlari kuzatuvlarining mavjud ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

43. Uy xo‘jaliklarining iste‘mol xarajatlari tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlarining umumlashtirilgan ma‘lumotlari alohida moddalar bo‘yicha taqdim etilgan. INIni hisoblash uchun har bir tovar (xizmat) o‘z og‘irligiga ega bo‘lishi kerakligi tufayli, uy xo‘jaliklari xarajatlari tovarlar va xizmatlar bo‘yicha ajratiladi va qayta taqsimlanadi.

44. INIni hisoblash uchun salmoq vaznlarni shakllantirishda nisbiy ko‘rsatkichlar – koeffitsiyentlardagi ulushlardan foydalaniladi.

45. Aholi iste‘mol xarajatlari tuzilishi asosida salmoq vaznlarni shakllantirish uchun ma‘lumotlar bazasini tayyorlashning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

INIni hisoblash uchun uy xo‘jaliklarining alohida vakil-tovar (xizmat)lar xarajatlarini moddalar bo‘yicha taqsimlash algoritmini ishlab chiqish;

algoritmarda foydalaniladigan uy xo‘jaliklarining xarajatlari taqsimotining koeffitsiyentlarini aniqlash;

tegishli koeffitsiyentlarni qo‘llash yo‘li orqali, vakil-tovarlar (xizmatlar) yig‘indisining alohida turlari bo‘yicha taqsimlangan uy xo‘jaliklarining o‘rtacha yillik xarajatlari aktuallashtiriladi.

46. Uslubni tanlash uy xo‘jaliklari xarajatlari tuzilishi haqida olinadigan oxirgi ma‘lumotlarning mavjudligiga bog‘liq.

47. Algoritmalar shakllanishi uslublarini aholi iste‘mol xarajatlari strukturasining alohida pozitsiyalari bo‘yicha uy xo‘jaliklari xarajatlarini taqsimlash usuliga qarab, uchta guruhga ajratish mumkin:

1- guruh: uy xo‘jaliklari xarajatlari yig‘indisida moddalar bo‘yicha aynan pozitsiyalariga ko‘ra bir-biriga mos keladigan vakil-tovar (xizmat)lar guruhini bevosita jalb qilish usuli.

Masalan, uy xo‘jaliklari xarajatlarida “erkaklar mo‘ynali bosh kiyimi” qismida nazarda tutilgan xarajatlari, umumiy aholi iste‘mol xarajatlari tuzilishida – “erkaklar mo‘ynali bosh kiyimi” pozitsiyasi bo‘yicha butunligicha qo‘shiladi;

2- guruh: uy xo‘jaligi xarajatlarida ikki yoki undan ortiq aynan o‘xshash vakil-tovar (xizmat)lar guruhida ulushlar bo‘yicha (koeffitsiyentlar yordamida) taqsimlash usuli.

Ulush koeffitsiyentlarini aniqlash – savdo, sanoat va xizmatlar bo‘yicha ko‘rsatilgan savdo va xizmatlar hajmi, shuningdek, ijtimoiy soha statistikasi ma‘lumotlari asosida amalga oshiriladi.

3- guruh: vakil-tovar (xizmat)lar yig‘indisida bir xil pozitsiyaga ega bo‘lmagan, alohida moddalar bo‘yicha nazarda tutilgan, uy xo‘jaligi xarajatlarini shartli qo‘shish yoki taqsimlash usuli.

Masalan, uy xo‘jaligi xarajatlarida “Sintetik gilamlar” qismi bo‘yicha nazarda tutilgan tovar INI to‘plamida mavjud emasligini hisobga olib, ushbu tovar salmog‘i iste‘mol narxlarini indeksini hisoblashda “Sintetik palaslar” tarkibiga kiritiladi.

48. Uy xo‘jaligi xarajatlarini alohida turdagi vakil-tovar (xizmat)lar uchun ulushli yoki shartli ravishda taqsimlanish usullarini qo‘llash maqsadida algoritmlar bilan taqsimlash koeffitsiyentlarini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi.

Aholining iste‘mol xarajatlari tarkibini taqsimlash koeffitsiyentlaridan foydalangan holda uy xo‘jaliklari xarajatlari taqsimoti, asosan, tegishli toifadagi sinflar, toifalar, tovar turlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

49. INIning hisoblash uchun, iste‘mol xarajatlari tarkibida vakil-tovar (xizmat)lar yig‘indisi alohida pozitsiyalari salmog‘ini aniqlash uchun uy xo‘jaliklarining iste‘mol xarajatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan tashqari, quyidagi qo‘shimcha ma‘lumotlardan ham foydalanish mumkin:

mahsulotning alohida turlarini ishlab chiqarish, chakana tovar aylanmasi strukturasi, uy-joy kommunal xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar va statistikaning boshqa tarmoqlari faoliyati haqidagi tarmoq statistikasi ma‘lumotlari;

ma‘lumotlarning boshqa manbalari (masalan, soliq organlari ma‘lumotlari, bir martalik maxsus tashkil etilgan kuzatuvlar natijalari va boshqa ma‘lumotlar);

mutaxassislar hisob-kitoblari va baholash usullarini qo‘llash natijasida shakllantirilgan ko‘rsatkichlar.

50. Uy xo‘jaliklari xarajatlari, vakil-tovar (xizmat)lar yig‘indisi holatlari bo‘yicha INIning hisoblash uchun guruhlarining qayta taqsimlanganidan so‘ng, uy xo‘jaliklarining avvalgi yillarga mo‘ljallangan aynan shu kabi guruh xarajatlari ma‘lumotlari bilan taqqoslanadi.

51. Salmoq vaznlarini hisoblash bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi.

52. Dastlab, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha tovarlar va xizmatlarning iste‘mol to‘plamidagi har bir pozitsiya uchun quyidagi formula yordamida birlamchi salmoq vaznlar hisoblanadi:

$$W_{birlamchi_i}^j = \frac{C_i^j}{\sum_{i=1}^n C_i^{MD}},$$

bu yerda:

$W_{birlamchi_i}^j$ – tovarning (xizmatning) (i) hudud bo‘yicha (j) birlamchi salmoq ulushi;

- C_i^j – hudud (j) bo'yicha uy xo'jaliklarining tovar (xizmat) (i) sotib olish uchun qilgan iste'mol xarajatlarining hajmi;
- $\sum_{i=1}^n C_i^{MD}$ – O'zbekiston Respublikasi (milliy darajada) bo'yicha aholining iste'mol xarajatlari umumiy hajmi

53. Tovarlar va xizmatlarning INIni hisoblashda tayanch davr narxlarini sifatida hisobot davridan avvalgi yilning dekabr oyidagi narxlar olinadi. Salmoq vazn ko'rsatkichlari esa – aholi iste'mol xarajatlarining so'nggi 4 ta tugallangan chorak (12 oy) ma'lumotlari tarkibidan olinadi va ushbu ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlash zarur.

INIni hisoblash uchun iste'mol xarajatlari tuzilishini ishlab chiqish maqsadida, aktualizatsiya koeffitsiyentlaridan foydalangan holda bir qancha qo'shimcha hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Aktualizatsiya koeffitsiyentlarini hisoblash avvalgi yil ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

$$K_{aktual} = \frac{LTR_{dek,y-1}}{\sum_{n=1}^{12} (LTR_{n,y-1}) / 12}$$

bunda:

- LTR_{dek} – tayanch yilning dekabr oyiga nisbatan dekabr oyi uchun mos ravishda tovar (xizmat)lar guruhining uzoq muddatli narx indeksi¹;
- LTR_n – tayanch yilning dekabr oyiga nisbatan n oyining uzoq muddatli narx indeksi;
- n – oy raqami (yanvar uchun -1, fevral uchun -2 va h.k.);
- $y-1$ – indekslar hisoblanadigan va solishtirma vaznlardan foydalaniladigan yilga nisbatan avvalgi yil.

54. Aholi iste'mol xarajatlari tuzilishining alohida yo'nalishlari bo'yicha salmoqlarni hisoblashning majburiy sharti – har bir yo'nalish bo'yicha o'rtacha yillik xarajatlarning aktualizatsiya koeffitsiyentlari mavjudligi hisoblanadi. Bunga ko'ra, aholi iste'mol xarajatlari tuzilishi salmog'i aniqlanib, yil boshidan kuzatuvga qayta kiritilgan (ular uchun aholi iste'mol xarajatlari tuzilishi shakllantiriladi) pozitsiyalar ham shular qatoriga kiradi.

Mazkur pozitsiyalar bo'yicha aktualizatsiya koeffitsiyentlarini aniqlash – avvalgi yil uchun yaqin bo'lgan yoki guruhlariga oid pozitsiyalar bo'yicha mavjud aktualizatsiya koeffitsiyentlaridan foydalaniladi.

¹ Uzoq muddatli narxlar indeksini hisoblash uslubi – 9 "Iste'mol narxlarini indeksini hisoblash" bo'limida keltirilgan.

55. Keyingi bosqichda har bir tovar pozitsiyasi bo'yicha birlamchi vaznlar aktualizatsiya koeffitsiyentiga ko'paytiriladi va olingan ma'lumotlar yig'indisini shakllantirish orqali barcha tovarlar va xizmatlar bo'yicha to'g'rilangan salmoq vaznlari aniqlanadi. To'g'rilangan vaznlarning umumiy yig'indisi 1 ga teng bo'lmaganida, u 1 ga tenglashtirish maqsadida muvofiqlashtiriladi. Buning uchun har bir tovarning to'g'rilangan salmoq vazni barcha tovarlar va xizmatlar bo'yicha to'g'rilangan umumiy vaznga bo'linadi. Bunda, quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$W_{to'g'rilan_i}^j = W_{birlamchi_i}^j \times K_{aktual}$$

$$W_i^j = \frac{W_{to'g'rilan_i}^j}{\sum_{i=1}^n W_{to'g'rilan_i}^{MD}}$$

$$\sum_{j=1}^m W_i^j = W_i^{MD}$$

$$\sum_{i=1}^n W_i^{MD} = 1,$$

bu yerda:

$W_{birlamchi_i}^j$ - tovarning (xizmatning) (i) hudud bo'yicha (j) birlamchi salmoq ulushi;

K_{aktual} – aktualizatsiya koeffitsiyenti;

$W_{to'g'rilan_i}^j$ – tovar (xizmatning) (i) hudud (j) bo'yicha to'g'rilangan salmoq ulushi;

W_i^j – tovar (xizmatning) (i) hudud bo'yicha (j), muvofiqlashtirilgan va indeks hisoblashda qo'llaniladigan salmoq vaznlari;

W_i^{MD} – tovar (xizmatning) (i) O'zbekiston Respublikasi bo'yicha salmoq vazni;

n – to'plamdagi tovarlar va xizmatlarning soni;

m – tovarlar (xizmatlar) (i) narxlari qayd etiladigan hududlar soni;

56. INIni shakllantirishda foydalaniladigan salmoq vaznlar tizimini qayta ko'rib chiqish har yili amalga oshiriladi.

9-bob. Hududlar va respublika bo'yicha INIni hisoblash

1-§. Hududlar bo'yicha INIni hisoblash

57. Agentlikning ma'lumotlar bazasida shakllangan o'rtacha narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida, dastlabki bosqichda agentlik tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha o'rtacha narx indeksini hisoblash amalga oshiriladi.

58. Mazkur ko'rsatkichlarni hisoblash shartlaridan biri bu – hisobot va tayanch davrlardagi narxlarga oid ma'lumotlarni qiyosiyliqi hisoblanadi. Indekslarni hisoblashda ikki “qo'shni” davrlarda aynan bir xil savdo (xizmatlar doirasi) tashkilotlarida, muayyan iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan bir xil tovar (xizmat)lar uchun qayd etilgan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar qo'shib hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, tuzilishiga va assortimentga oid siljishlar ta'sirini istisno etish imkonini beradi.

59. O'rtacha narxlarning qisqa muddatli indeksleri har bir tovar (xizmat) bo'yicha quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$STR_{t,i}^j = \frac{\overline{P_{t,i}^j}}{\overline{P_{t-1,i}^j}}$$

bunda:

$STR_{t,i}^j$ – hudud uchun (j) avvalgi oyga nisbatan tovar (xizmat) (i) hisobot oyi (t) o'rtacha narxining qisqa muddatli indeksi;

$\overline{P_{t,i}^j}$ – hudud uchun (j) tovar (xizmat)ning hisobot oyidagi (t) o'rtacha geometrik narxi (tarifi);

$\overline{P_{t-1,i}^j}$ – hudud uchun (j) tovar (xizmat) (i) avvalgi oyidagi ($t-1$) o'rtacha geometrik narxi (tarifi).

60. Tovlar (xizmat) uchun o'rtacha narx indeksleri asosida muayyan hududlar bo'yicha turli bosqichlarda agregatlangan narx indeksleri aniqlanadi.

61. Hisob-kitoblar Laspeyresning modifikatsiyalangan formulasi asosida, tayanch davr salmoq vaznlari tizimidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Modifikatsiya shundan iboratki, oxirgi narx indeksi ko'rsatkichi har bir davr tayanch salmog'iga ko'paytiriladi. Bunday yondashuv hisob-kitoblar olib borilishida uzluksizlikni ta'minlash bilan bir qatorda, ishlab chiqarish va sotishning barqaror bo'lmagan holatlarida tovarlarni almashtirish vazifasini osonlashtiradi.

62. Hisob-kitob quyidagi algoritm asosida amalga oshiriladi:

$$1. LTR_{t,i}^j = \prod_{n=1}^t STR_{n,i}^j$$

$$2. V_{t,i}^j = W_i^j * \prod_{n=1}^t STR_{n,i}^j$$

$$3. LTR_{t,gr}^j = \frac{\sum_{i=1}^g V_{t,i}^j}{\sum_{i=1}^g W_i^j} = \frac{V_{t,gr.}^j}{W_{gr.}^j},$$

$$4. STR_{t,gr.}^j = \frac{LTR_{t,gr.}^j}{LTR_{t-1,gr.}^j}$$

bunda:

$LTR_{t,i}^j$ – joriy oydagi (t) hudud bo'yicha (j) tovar (xizmat)ning (i) tayanch davri dekabr oyiga nisbatan uzoq muddatli narx indeksi;

STR_i^j – hisobot oyining o'tgan oyga nisbatan tovar (xizmat) (i) bo'yicha hudud uchun (j) qisqa muddatli o'rtacha narx indeksi;

$STR_{t,gr.}^j$ – hisobot oyining o'tgan oyga nisbatan tovar (xizmat) (i) guruhi (kichik guruh) bo'yicha hudud uchun (j) qisqa muddatli o'rtacha narx indeksi;

$LTR_{t,gr.}^j$ – joriy oyda (t) tayanch yilning dekabr oyiga nisbatan hudud uchun (j) tovar (xizmat)lar guruhi (kichik guruh) bo'yicha uzoq muddatli narx indeksi;

$LTR_{t-1,gr.}^j$ – o'tgan oydagi ($t-1$) tayanch yilning dekabr oyiga nisbatan hududning tovar (xizmat)lar guruh (kichik guruhi)lari uzoq muddatli narx indeksi;

$V_{t,i}^j$ – hudud bo'yicha (j) joriy oyda (t) tovar (xizmat)ning (i) narxi salmog'i;

W_i^j – tovar (xizmat)(i)ning salmoq vazni;

n – oy raqami (yanvar uchun -1, fevral uchun -2 va h.k.);

g – guruh (kichik guruh)ga kiruvchi tovar (xizmat)lar miqdori.

2-§. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha iste'mol narxlari indeksini hisoblash

63. Respublika bo'yicha INIni shakllanish algoritmi quyidagi hisob-kitob turlarini o'z ichiga oladi:

$$1. LTR_{t,i}^{MD} = \frac{\sum_{j=1}^m W_i^j \times \prod_{n=1}^t STR_{n,i}^j}{\sum_{j=1}^m W_i^j}$$

bunda, m - tovar (xizmat) mavjud bo'lgan hududlar miqdori.

$$2. STR_{t,i}^{MD} = \frac{LTR_{t,i}^{MD}}{LTR_{t-1,i}^{MD}}$$

$$3. V_{t,i}^{MD} = W_i^{MD} \times \prod_{n=1}^t STR_{n,i}^{MD}$$

$$4. LTR_{t,gr.}^{MD} = \frac{\sum_{i=1}^g V_{t,i}^{MD}}{\sum_{i=1}^g W_i^{MD}} = \frac{V_{t,gr.}^{MD}}{W_{gr.}^{MD}}$$

$$5. STR_{t,gr.}^{MD} = \frac{LTR_{t,gr.}^{MD}}{LTR_{t-1,gr.}^{MD}}$$

bunda:

- $LTR_{t,i}^{MD}$ – respublika (milliy darajada) bo'yicha joriy oydagi tovar (xizmat)ning (*i*) tayanch yilning dekabr oyiga nisbatan uzoq muddatli narx indeksi (*t*);
- $STR_{n,i}^j$ – hududning (*j*) tovar (xizmat)lari (*i*) bo'yicha o'tgan oyga nisbatan joriy oydagi (*n*) qisqa muddatli o'rtacha narxlari indeksi;
- n* – oy raqami (1-yanvar, 2-fevral va h.k.);
- $STR_{t,i}^{MD}$ – respublika (milliy darajada) bo'yicha tovar yoki xizmat (*i*)ning o'tgan oyga nisbatan joriy oydagi (*t*) qisqa muddatli narx indeksi;
- $LTR_{t-1,i}^{MD}$ – respublika (milliy darajada) uchun (*t-1*) avvalgi oydagi tovar (xizmat) (*i*) bo'yicha asosiy yilning dekabriga nisbatan uzoq muddatli narx indeksi;
- $V_{t,i}^{MD}$ – respublika (milliy darajada) uchun joriy oyda (*t*) tovar (xizmat) (*i*)ning narx salmog'i;
- $V_{gr.}^{MD}$ – respublika (milliy darajada) uchun joriy oyda (*t*) tovarlar yoki xizmatlar guruhi (kichik guruhi) narxining salmog'i;
- W_i^{MD} – tovar yoki xizmatning (*i*) O'zbekiston Respublikasi bo'yicha (milliy darajada) salmoq vazni;
- $W_{gr.}^{MD}$ – tovarlar yoki xizmatlar guruhi (kichik guruhi)ning O'zbekiston Respublikasi (milliy darajada) bo'yicha salmoq vazni;
- g* – guruh (kichik guruh)ga kiruvchi tovarlar (xizmatlar) miqdori;
- $STR_{t,gr.}^j$ – hudud uchun (*j*) tovar (xizmat)lar guruhi (kichik guruhi) bo'yicha (*t*) o'tgan oyga nisbatan joriy oydagi qisqa muddatli o'rtacha narx indeksi;

3-§. Turli tayanch davrlar bo'yicha INIning hisoblash

64. **Har oyda** avvalgi oyga nisbatan narx indekslari hisoblanishidan tashqari, o'tgan yilning dekabr oyiga, o'tgan yilning mos oyiga hamda yil boshidan o'tgan yilning mos davriga nisbatan narx indekslari hisoblanadi.

65. Ham hududlar, ham respublika uchun yuqorida qayd etilgan indeksni hisoblashda quyidagi formulalardan foydalaniladi:

o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan:

$$LTR_{2t} = \prod_{n=1}^t STR_n$$

bunda:

LTR_{2t} – o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan joriy oydagi (t) narxlar indeksi (tovar yoki xizmat, guruh yoki kichik guruh, barcha tovarlar va xizmatlar bo'yicha – jamlangan ma'lumot);

STR – o'tgan oyga nisbatan n – oyi uchun narxlarning qisqa muddatli indeksi (tovar yoki xizmat, guruh yoki kichik guruh, barcha tovarlar va xizmatlar bo'yicha – jamlangan ma'lumot);

t – joriy oy;

n – oyning tartib raqami.

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan:

$$LTR_{3t} = \frac{LTR_{t,y}}{LTR_{t,y-1}}$$

bunda:

LTR_{3t} – o'tgan yilning mos oyiga nisbatan joriy oy (t) narxining indeksi (tovar yoki xizmat, guruh yoki kichik guruh, barcha tovarlar va xizmatlar bo'yicha – jamlangan ma'lumot);

LTR_t – tayanch yilning dekabr oyiga nisbatan joriy oy (t) narxlari indeksi (tovar yoki xizmat, guruh yoki kichik guruh, barcha tovarlar va xizmatlar bo'yicha – jamlangan ma'lumot);

t – joriy oy;

y – joriy yil;

$y-1$ – o'tgan yil.

yil boshidan, o'tgan yilning mos davriga nisbatan:

$$LTR_{4,t} = \frac{\sum_{n=1}^t LTR_{n,y}}{\sum_{n=1}^t LTR_{n,y-1}}$$

bunda:

LTR_{4t} – o'tgan yilning mos davriga nisbatan, yanvar oyidan boshlab joriy

oygacha (t) bo'lgan narxlar indeksi (tovar yoki xizmat, guruh yoki kichik guruh, barcha tovarlar va xizmatlar bo'yicha – jamlangan ma'lumot);

LTR_n – tayanch yilning dekabriga nisbatan n - oy uchun narxlar indeksi (tovar yoki xizmat, guruh yoki kichik guruh, barcha tovarlar va xizmatlar bo'yicha jamlangan ma'lumot);

t – joriy oy;

y – joriy yil;

$y-1$ – o'tgan yil.

66. Har chorakda avvalgi chorakka nisbatan shu chorakdagi narxlar indeksleri va avvalgi yilning tegishli choragiga nisbatan shu chorakdagi narxlar indeksleri aniqlanadi.

Mazkur indekslarni hisoblashda quyidagi formulalardan foydalaniladi:

joriy chorak, o'tgan chorakka nisbatan:

$$LTR_{5,q} = \frac{\sum_{\kappa=1}^3 LTR_{\kappa,q}}{\sum_{\kappa=1}^3 LTR_{\kappa,q-1}}$$

bunda:

$LTR_{5,q}$ – o'tgan chorakka nisbatan joriy chorakdagi (q) narxlar indeksi (tovar yoki xizmat, guruh yoki kichik guruh, barcha tovarlar va xizmatlar bo'yicha – jamlangan ma'lumot);

LTR_{κ} – tayanch yilning dekabr oyiga nisbatan chorakning k - oyi uchun narxlar indeksi (tovar yoki xizmat, guruh yoki kichik guruh, barcha tovarlar va xizmatlar bo'yicha – jamlangan ma'lumot);

k – har bir chorakdagi oyning tartib raqami (yanvardan martgacha, apreldan iyungacha va h.k.);

q – joriy chorak;

$q-1$ – o'tgan chorak

joriy chorak, o'tgan yilning mos choragiga nisbatan:

$$LTR_{6,q} = \frac{\sum_{\kappa=1}^3 LTR_{\kappa,y}}{\sum_{\kappa=1}^3 LTR_{\kappa,y-1}}$$

bunda:

$LTR_{6,q}$ – o'tgan yilning mos choragiga nisbatan joriy chorakdagi (q) narxlar

indeksi (tovar yoki xizmat, guruh yoki kichik guruh, barcha tovarlar va xizmatlar bo'yicha – jamlangan ma'lumot);

LTR_k – tayanch yilning dekabr oyiga nisbatan chorakning k - oyi uchun narxlar indeksi (tovar yoki xizmat, guruh yoki kichik guruh, barcha tovarlar va xizmatlar bo'yicha – jamlangan ma'lumot);

k – har bir chorakdagi oyning tartib raqami (yanvardan martgacha, apreldan iyungacha va h.k.);

y – joriy yil;

$y-1$ – o'tgan yil.

67. Bundan tashqari, statistik maqsadlarda quyidagi qo'shimcha diskret narxlar indeksi shakllantiriladi:

hisobot yili joriy choragining tayanch yil o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi (formula jamlashtirishning barcha darajalarida qo'llaniladi):

$$LTR_{7,q} = \frac{\sum_{k=1}^3 LTR_{k,y} / 3}{\sum_{n=1}^{12} LTR_{n,z} / 12}$$

bu yerda,

$LTR_{7,q}$ – hisobot yili (u) joriy choragida (q) tayanch yilning o'rtacha yillik narxlariga (z) nisbatan narx indeksi;

$LTR_{k,y}$ – hisobot yili (y) k -chi oyidagi yagona tayanch davriga nisbatan hisoblangan uzoq muddatli indeks;

$LTR_{n,z}$ – tayanch yilning (z) n -chi oyidagi yagona tayanch davriga nisbatan hisoblangan uzoq muddatli narx indeksi;

k – chorak oyining tartib raqami (1 chorakning 1-chi oyi uchun, 2 2-chi oyi uchun va 3 3-chi oyi uchun);

n – tayanch yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr).

hisobot yili joriy choragida hisobot yili o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi (formula jamlashtirishning barcha darajalarida qo'llaniladi):

$$LTR_{8,q} = \frac{\sum_{k=1}^3 LTR_{k,y} / 3}{\sum_{n=1}^{12} LTR_{n,y} / 12},$$

bu yerda,

$LTR_{8,q}$ – hisobot yili (y) joriy choragida (q) joriy yilning (y) o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi;

$LTR_{k,y}$ – hisobot yili (y) k-chi oyidagi yagona tayanch davriga nisbatan hisoblangan uzoq muddatli narx indeksi;

$LTR_{n,y}$ – hisobot yili (y) n-chi oyidagi yagona tayanch davriga nisbatan hisoblangan uzoq muddatli narx indeksi;

k – chorak oyining tartib raqami (1- chorakning 1-chi oyi uchun, 2 2-chi oyi uchun va 3 3-chi oyi uchun);

n – tayanch yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr).

hisobot yili joriy oyidagi tayanch yilning o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi (formula jamlashtirishning barcha darajalarida qo‘llaniladi):

$$LTR_{9,t} = \frac{LTR_{t,y}}{\sum_{n=1}^{12} LTR_{n,z} / 12},$$

Bu yerda

$LTR_{9,t}$ – hisobot yili (y) joriy oyidagi (t) tayanch yilning (z) o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi;

n – tayanch yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr).

hisobot yili joriy oyidagi hisobot yilining o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi (formula jamlashtirishning barcha darajalarida qo‘llaniladi):

$$LTR_{10,t} = \frac{LTR_{t,y}}{\sum_{n=1}^{12} LTR_{n,y} / 12},$$

Bu yerda

$LTR_{10,t}$ – hisobot yili (y) joriy oyidagi (t) hisobot yilining (y) o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi;

n – tayanch yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr).

Hisobot yilining joriy choragi va joriy oyining hisobot yilining o‘rtacha yillik narxlariga narxlar indeksi (LTR_8 va LTR_{10}) hisobot yili oxirida dekabr oyi uchun narxlar indeksi hisob-kitoblari tugaganidan so‘ng shakllantiriladi. Indeksni shakllantirish har bir chorak (LTR_8) va oy uchun (LTR_{10}) retrospektiv holda amalga oshiriladi.

4-§. Narxlar indekslari o‘rtacha oylik ko‘rsatkichlarini hisoblash

68. Yuqorida sanab o‘tilgan indekslardan tashqari, o‘rtacha oylik INIning hisoblashda o‘rtacha geometrik qiymat formulasidan foydalangan holda hisoblanadi.

$$\overline{I_p} = \sqrt[n]{STR_1 \times STR_2 \times \dots \times STR_n}$$

bunda :

$\overline{I_p}$ – birinchi oydan boshlab, n – oygacha bo‘lgan davr uchun o‘rtacha oylik indeks;

STR – o‘tgan oyga nisbatan har bir oy uchun qisqa muddatli narx indeksi;

p – oylar soni.

Yil boshidan o‘rtacha oylik narx indekslarini hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\overline{I_p} = \sqrt[n]{LTR_{2n}}$$

bunda:

$\overline{I_p}$ – yanvar oyidan boshlab, n – oygacha bo‘lgan davr uchun o‘rtacha oylik indeks;

LTR_2 – o‘tgan yilning dekabr oyiga nisbatan joriy yilning n - oyidagi narx indeksi;

n – oyning tartib raqami.

5-§. Ma’lumotlarni tahlil qilish

69. Ma’lumotlarni tahlil qilish bosqichida INI to‘g‘risidagi statistik materiallarni ishlab chiqish, ularni batafsil tekshirish va rasmiy statistika ma’lumoti sifatida tarqatish uchun tayyorlash amalga oshiriladi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish bosqichida tayyorlangan chiquvchi jadvallar natijalarini, shuningdek, ma’lumotlar bazasidan yoki tayyor hujjatlar bazasidan olingan zarur axborotlarni ko‘rib chiqish, shakllantirilgan ma’lumotlar asosida diagrammalar, grafikalar va tahliliy jadvallarni tuzish bo‘yicha ishlar amalga oshiriladi.

70. INI to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlari sifatini tahlil qilishda, statistik ko‘rsatkichlarning ishonchliligi va aniqligi (asoslanganligi, xatolarning yo‘qligi), yaxlitligi (qamrovning to‘liqligi, statistika metodologiyasiga rioya etilganligi), bir-biriga qarama-qarshi emasligi, qiyosiyliigi (hudud, qamrab olingan obyektlar doirasi, o‘lchov birligi va boshqalar bo‘yicha), bir xilda tuzilganligi (ma’lumotlarni chiqarib tashlash, ularda keskin o‘zgarishlar, tushirib qoldirish holatlarining mavjud yoki mavjud emasligi) jihatlari ko‘rib chiqiladi.

71. Ma'lumotlarni tahlil qilish doirasida amalga oshiriladigan tekshirish ishlari birlamchi ma'lumot qamrovi ko'rsatkichi va savolnoma bo'yicha taqdim etilgan javoblar koeffitsiyentining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish, statistika ma'lumotlarini oldingi davrlar va joriy trendlar bilan solishtirish ishlarini o'z ichiga oladi;

Zarur hollarda, tahlil qilish doirasida INI to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini to'g'ri talqin qilinishini ta'minlashga qaratilgan turli tushuntirishlar tayyorlanishi mumkin.

Ushbu jarayonda, shuningdek, barcha chiquvchi jadvallar, fayllar va boshqa statistik materiallar kuzatuv obyektlari va ular bo'yicha individual ma'lumotlarni bevosita yoki bilvosita identifikatsiya qilish imkonini bermayotganligini tekshirishni nazarda tutuvchi birlamchi ma'lumotlarni identifikatsiya qilishni oldini olish bo'yicha choralar qo'llash amalga oshiriladi.

10- bob. Yakuniy qoidalar

72. INIni tarqatish GSBPMning VII bosqichida nazarda tutilgan jarayonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

XVJ tomonidan ishlab chiqilgan kengaytirilgan ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi (k-MTUT)ga muvofiq, INI ma'lumotlari har oyda belgilangan jadvaliga muvofiq nashr etiladi. Ma'lumotlar bir vaqtning o'zida barcha foydalanuvchilarga agentlikning rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali press-reviz, tezkor ma'lumotlar, jadvalli materiallar ko'rinishida tarqatiladi. Guruhlar, sinflar va tovarlar turlari bo'yicha narxlarning o'zgarishi to'g'risida batafsil ma'lumotlar esa statistik byulleten va to'plamlarda e'lon qilinadi.

Foydalanuvchilarga yordam tariqasida narxlar indeksi qisqa uslubiy tushuntirishlar bilan birga e'lon qilinadi.

Nashrlar va rasmiy xabarlarda tovarlar va xizmatlarning INI to'g'risidagi ma'lumotlar verguldan keyin bitta o'nlik belgi bilan joylashtiriladi.

Statistika agentligining tarmoq boshqarmalari (ichki foydalanuvchilar) uchun narxlar indeksi to'g'risidagi ma'lumotlar Statistika dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan reja-jadval asosida taqdim etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Iste’mol narxlari indeksi bo’yicha qo’llanma: Nazariya va amaliyot” (Xalqaro valyuta jamg’armasi (XVJ), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevropa hamjamiyati statistika byurosi (Yevrostat), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YeIK), Butunjahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)), 2007- y.
2. “O‘zbekiston Respublikasi. Iste’mol narxlari indeksi bo’yicha missiyasi texnik hisoboti (2021 yil 11-15 oktabr)” P. Kelli, 15.12.2021- y.
3. “O‘zbekiston Respublikasi. Iste’mol narxlari indeksi bo’yicha missiya hisoboti (2022- yil 9-13 may)” V. Gereyro, 2022- y.
4. Rivojlangan davlatlarning iste’mol narxlari indeksi ko‘rsatkichi bo’yicha metama’lumotlari, Xalqaro valyuta jamg’armasining k-MTUT, <https://dsbb.imf.org/>.

“Tovarlar va xizmatlarning iste’mol
narxlari (tariflari) kuzatuvini
tashkil etish hamda indekslarni hisoblash
bo’yicha uslubiy nizom”ga
1-ILOVA

Kuzatuvning umumiy tamoyillari

1-bob. Tovar (xizmat)larning iste’mol narxlarini ro’yxatga olish

1. Tovarlar va xizmatlar narxlari va tariflarini ro’yxatga olish hududiy statistika organlari tomonidan amalga oshiriladi.

2. INIni hisoblash uchun ma’lumot to’plash, har hisobot oyining 10-sanasidan 20-sanasigacha, tovarlar va xizmatlarning aniq turlari narxlarini ro’yxatga olish yo’li orqali amalga oshiriladi. Ma’lumotlar to’plash bo’yicha ishlar shu davr mobaynida muntazam ravishda olib borilishi zarur.

3. Narx to’g’risidagi axborotlarni to’plash jarayonida, bir oyda ikki marta narxlarni qayd etish oralig’ini ushlab turish maqsadida, aynan shu tovarlar va xizmatlarga hamda aynan shu savdo va pullik xizmat sohasi obyektlaridagi narxlarni qayd etishning belgilangan muddatlariga rioya qilish zarur.

4. Narxlarni ro’yxatga olish bevosita savdo va xizmat ko’rsatish obyektiga tashrif buyurish, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa internet manbalar orqali narxlarni onlayn ro’yxatga olish, idoraviy axborot bazalaridagi ma’lumotlardan foydalangan holda narxlar to’g’risidagi ma’lumotlarni to’plash (nazorat-kassa apparatlari va elektron terminallarini skanerlash orqali olingan soliq organlari ma’lumotlari, skan-ma’lumotlar), shuningdek, to’g’ridan-to’g’ri savdo obyektlari ma’lumotlarini olish orqali amalga oshiriladi. Ma’lumotlarni to’plash usuli resurs bazasi va manbalarning ishonchliligi darajasini hisobga olgan holda tanlanadi.

5. Har bir tovar (xizmat) turi narxlarini qayd etish uchun alohida elektron blankdan foydalaniladi. Blankni to’ldirishdan maqsad – har bir viloyat hududlari bo’yicha va jami respublika bo’yicha oylik INIni hisoblash uchun zarur bo’ladigan qiyosiy narx (tarif)larni tayyorlashdir.

6. Ro’yxatga sotuvda mavjud bo’lgan tovar (xizmat)ning amaldagi narxi (tarifi) (qo’shilgan qiymat solig’i, aksiz solig’i va boshqa bilvosita soliqlarni qo’shgan holda) olinishi lozim.

7. INIni hisoblash uchun foydalanishda yuqori darajada aniq va haqqoniy ma’lumot olishning asosiy shartlaridan biri, bu hisobot va tayanch davrlardagi narx (tarif)larning qiyosiylikiga rioya etish hisoblanadi.

8. Hisobot yili davomida har bir tovar (xizmat)ga ro'yxatga olinadigan narx kotirovkalarining bir xil miqdorga ega bo'lishi, narx (tarif)lar qiyosiylikining zaruriy sharti hisoblanadi. Bu qoida amal qilmagan holatlarda, hisoblangan narx (tarif) indekslarining aniqligi yetarli bo'lmashligi mumkin.

Masalan, agar biror bir namuna-tovarga tayanch davrda 6 ta narx, hisobot davrida esa 5 ta narx ro'yxatga olingan bo'lsa va o'rtacha narxlar hisob-kitobi, shuningdek, ularning o'zgarishi har bir davrda barcha ro'yxatga olingan narx kotirovkalari asosida amalga oshirilsa, unda o'rtacha narx o'zgarishi qayd qilinishi mumkin, chunki bu vaqtda barcha narxlar o'zgarishsiz qolgan holda, faqat mazkur tovarning (bazis davrda narxi ro'yxatga olingan) aniq bir turi sotuvda yo'q bo'lgan bo'ladi.

Quyida bunday o'zgarishning narxlar indeksiga ta'sirining shartli namunasi keltirilgan:

Savdo (xizmat ko'rsatish) obyektining nomi	O'tgan oy narxi, so'm	Joriy oy narxi, so'm	Narx o'zgarishi, %
A	V	S	$D=C/B \times 100$
1-sonli savdo nuqtasi	1000	1000	100,0
2-sonli savdo nuqtasi	1100	1100	100,0
3-sonli savdo nuqtasi	1500	1500	100,0
4-sonli savdo nuqtasi	1150	1150	100,0
5-sonli savdo nuqtasi	1350	1350	100,0
6-sonli savdo nuqtasi	1300	-	-
o'rtacha narx:	1222,01	1206,99	98,8

Narxlar kotirovkalar sonining o'zgarishini hisobga olmasdan, ushbu shartli misol uchun narxlar indeksi 100 % ni tashkil etadi.

Savdo (xizmat ko'rsatish) obyektining nomi	O'tgan oydagi narx, so'm	Joriy oydagi narx, so'm	Narx o'zgarishi, %
A	V	S	$D=C/B \times 100$
1-sonli savdo nuqtasi	1000	1000	100,0
2-sonli savdo nuqtasi	1100	1100	100,0
3-sonli savdo nuqtasi	1500	1500	100,0
4-sonli savdo nuqtasi	1150	1150	100,0
5-sonli savdo nuqtasi	1350	1350	100,0
6-sonli savdo nuqtasi	1300*	-	-
o'rtacha (taqqoslama) narx:	1206,99	1206,99	100,0

*) ikki taqqoslanayotgan davrda narx kotirovkalarining qiyosiylikini ta'minlash maqsadida narx hisob-kitobdan chiqariladi.

9. INIni hisoblashda yonma-yon davrlarda narx ma'lumotlarining qiyosiylikini va ularning uzluksizligini ta'minlash uchun namuna-tovar (xizmat)larni almashtirish usulini qo'llash tavsiya etiladi.

10. Agar, biror sababga ko'ra, ilgari ro'yxatga olingan tovar joriy oyda sotuvga chiqmagan bo'lsa, aynan shunga o'xshash tovar birligi narxi ro'yxatga olinadi. Bunday holatda, tovar solishtiruv mezoniga muvofiq tanlanadi. Agar oldingi oyda tanlangan tovar bo'yicha ma'lumot to'plash yoki unga ekvivalent tovar topish imkoni bo'lmasa, ba'zi hollarda ma'lumot to'plash uchun yangi savdo obyektidan foydalanishga to'g'ri keladi. Yangi savdo obyektida oldingi oyda narxi qayd etilgan tovarning aynan o'zi yoki shunga o'xshash tovarning oldingi va joriy oy uchun narxlari taqqoslanadi va narx darajasida o'zgarish aniqlansa, ushbu o'zgarish foizi sotuvga chiqmagan tovarga qo'llangan holda uning joriy oy uchun narxi qayd etiladi. Taqqoslaganda oldingi oy bilan joriy oydagi narxlar darajasida o'zgarish aniqlanmagan taqdirda o'tgan oydagi narx qayd etiladi.

11. Quyidagilarni ro'yxatga qo'shishga ruxsat etilmaydi:

- a) ifloslangan, ishlab chiqarish nuqsoni bo'lgan tovarlar;
- b) saqlash muddati tugagan oziq-ovqat mahsulotlari;
- d) savdo obyektining yopilishi oldidan, pasaytirilgan narxlarda sotilayotgan tovarlar;
- e) chegirmalar va arzon narxda sotib tugatishlar, bular odatda eskirgan, tovar ko'rinishini yo'qotgan, ma'naviy eskirgan, urfdan chiqqan, buzilgan yoki nuqsonli, tugatish arafasida arzon narxlarda sotiladigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

2-bob. Tovarlarini solishtirish (taqqoslash) mezonlari

12. Ro'yxatga oluvchi, muayyan turdagi tovarni, uni almashtirish uchun tanlab olingan va kelgusida narxlarni ro'yxatga olishi mo'ljallangan tovar bilan taqqoslash imkoni bor yoki yo'qligini aniqlashi lozim.

13. Buning uchun quyidagi asosiy mezonlardan foydalanish lozim:

a) qoidaga ko'ra, turli savdo obyektlaridagi bir xil turdagi tovarlarni o'zaro solishtirish va mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarni taqqoslash tavsiya etilmaydi. Biroq, ba'zi hollarda, agar registrator ikki xil savdo obyektlarida tovarlar turini sotish sifati va shartlari mutlaqo bir xil degan xulosaga kelsa, u holda qat'iy nazorat ostida narxlarni to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash mumkin;

b) bir mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni, agar ularning sifati deyarli bir xil bo'lsa taqqoslash mumkin. Xususan, kiyim-kechak bo'yicha faqat aynan bir ishlab chiqaruvchining tovarlarini tanlash imkoni mavjud bo'lmagan hollarda, turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni taqqoslash mumkin;

d) asosan faqat o'lchami bo'yicha farq qiluvchi bir xil modeldagi kiyim-kechak narxlarini taqqoslash mumkin. Biroq, agarda turli o'lchamdagi bir model narxida sezilarli farq mavjud bo'lsa, bu narxlar taqqoslanmaydi.

14. Tovarlarini taqqoslash mumkin yoki mumkin emasligini aniqlashning umumiy tamoyili, bu ularning farqi narxga ta'sir etishini bilishdir. Odatda tovarlarning narxini belgilab beruvchi iste'mol sifatlarida sezilarli farq bo'lmasa, ularni taqqoslash mumkin bo'ladi. Taqqoslash mezonlarining qanchalik qat'iy bo'lishini ro'yxatga oluvchining o'zi hal qiladi. Agar bu mezonlar juda qat'iy bo'lsa, u holda indeks chegaralangan narx miqdori asosida hisoblanadi va bu holat ularning haqiqiy o'zgarishini aks ettirmasligi mumkin. Agarda ular judayam noaniq bo'lsa, narx indeksi sifat o'zgarishini narx o'zgarishi sifatida aks ettiradi.

3- bob. Mavsumiy meva va sabzavot narxlarini ro'yxatga olish va hisoblash

15. Bir necha oylar mobaynida bozorlardan to'liq yo'qoladigan tovarlarni ro'yxatga oluvchi tomonidan shartli ravishda har oy hisoblab boriladi. Joriy yilda bozorga tovarning kelib tushishi bilan yig'ilgan yangi narxlarning har birini taqqoslash uchun o'tgan oydagi shartli hisoblangan narxlarning mavjud bo'lishi uchun, o'tgan mavsum oxirida yig'ilgan narxlar har oy yangilab boriladi. Shu tarzda, indeksda yangi mavsumda olingan narxlarni birinchi marta hisobga olish mumkin.

16. Bu usuldan foydalanish natijasida, indekslarda ba'zi oylarda keskin o'zgarishlar kuzatilishi mumkin, ammo bu uslubiyat jihatidan to'g'ri hisoblanadi va bozor shartlarini aks ettiradi. Indeksning bu ko'tarilishlari har yili aynan bir xil oylarga to'g'ri kelishi lozim va natijada yil uchun narx o'zgarishi dinamikasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

17. Shartli narxni hisoblash "shartli umumiy o'rtachani hisoblash" usulidan foydalangan holda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu usul mavjud bo'lmagan taqqoslanadigan narxlarda mazkur element uchun o'rtacha narx o'zgarishidan foydalanib, yetishmayotgan tovar uchun narxlarni baholashni o'z ichiga oladi. Olingan narx o'zgarishi qiymati yetishmayotgan tovarning narxini hisoblash uchun ishlatiladi.

"Shartli umumiy o'rtachani hisoblash" usuli bo'yicha "Yumaloq boshli guruh" narxlarini hisoblash:

Tovar nomi	O'tgan oydagi narx, so'm	Joriy oydagi narx, so'm	Narx o'zgarishi, baravar
A	B	C	D=C/B
Avangard	10 000	10 500	1,050
Alanga	12 000	13 000	1,083
Super alanga	14 500	-	
Shartli ravishda hisoblangan (Super alanga) tovar narxi		15 457	Shartli narx nisbati 1,066
Tovar bo'yicha elementar indeks (o'rtacha geometrik)			1,066

1-bosqich: Shartli narx nisbati 1 va 2 toifadagi tovarlarning o'rtacha geometrik qiymati orqali hisoblanadi: $1,066 = \sqrt[3]{1,050 \times 1,083}$.

2- bosqich: Uchinchi turdagi yetishmayotgan mahsulot uchun hisobot oyining narxi o'tgan oyning narxini shartli narx nisbatiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi: $14\,500 \times 1,066 = 15\,457$ so'm

Shartli hisoblangan narxlar iste'mol bozorida meva va sabzavotlarning yangi hosili paydo bo'lgunga qadar yangilab boriladi.

18. Shu bilan birga, meva va sabzavotlar uchun MIIT–2018 tasniflagichining iyerarxik tuzilmasiga asosan shakllantiriladigan “shartli umumiy o'rtacha” qo'llaniladi. Masalan, kichik sinfga kiruvchi mahsulot savdoda butunlay yo'qolib qolsa, “shartli umumiy o'rtacha” ushbu kichik sinfga kiruvchi boshqa mahsulotlarning narx o'zgarishlari asosida hisoblanadi.

Agar, kichik sinfga faqatgina bitta mahsulot mansub bo'lsa va u savdoda vaqtincha mavjud bo'lmasa, u holda “shartli umumiy o'rtacha” yuqori sinfga kiruvchi barcha mahsulotlar narxlari o'zgarishlari asosida aniqlanadi. Ushbu sxema yanada yuqoriroq darajadagi jamlanmalar uchun ham qo'llaniladi.

19. Hosili yilda bir necha bor bozorga kirib keladigan, yil davomida mavjud bo'ladigan tovarlar (kartoshka, sabzi, lavlagi va boshqalar) bo'yicha quyidagi hisobga olish shartlari qo'llaniladi: masalan, bozorda kartoshkaning yangi va eski hosili mavjud bo'lgan oylarda, ularni bir turdagi tovar sifatida hisobga olish kerak va tanlovga o'tgan yilgi yoki yangi kartoshka kirganligidan qat'iy nazar, har oyda oddiy o'rtacha narxni hisoblash lozim, ya'ni o'tgan oy bilan taqqoslanishi hisobga olinmaydi. Biroq, tovarlarni tanlab olishda ma'lum bir nisbatlarga rioya qilish zarur.

20. Agar ro'yxatga oluvchi har oyda yil davomida bir necha marta bozorga chiquvchi hosilning ma'lum miqdordagi narxini kuzatadigan bo'lsa, u yangi hosil uchun nechta narx olishi haqida qaror qabul qilishi lozim. Shubhasiz, bozorda mahsulotning faqat bir turi bo'ladigan oylarda bu narsa muhim emas, lekin mavsum boshida ro'yxatga oluvchi faqat yangi hosil narxlarini yoki ikkala turdagi tovarlar narxlarini yig'ishni hal etishi lozim. Bu tanlov, bozorda mahsulotlarning ikki turi ham mavjud bo'lgan oylarda qayd etilgan o'rtacha narxlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi va bu oylardagi

o'zgarishlarning o'n ikki oylik o'zgarishlar dinamikasiga ham ta'sir qilishi mumkin. Ro'yxatga oluvchilar har bir savdo obyektida o'tgan haftada tovarning qaysi turiga aholi tomonidan talab oshganligini (sotilgan hajmi bo'yicha) aniqlab, mahsulotning eng ommabop turi bo'yicha narxlarni ro'yxatga olishi kerak. Misol uchun, yangi sabzining birinchi oylarda paydo bo'lishida, so'rov orqali sakkizta narxdan 2 tasi sabzining yangi hosili bo'yicha va 6 tasi eski hosili bo'yicha qayd qilinadi va keyin 8 ta narxdan o'rtacha geometrik narxi hisoblanadi. Kelgusi davrlarda ro'yxatga olinayotgan narxlar nisbati talab va taklifdan kelib chiqib o'zgarishi lozim.

Xuddi shunday yondashuv boshqa tovarlar turlari narxlarini ro'yxatga olishda ham qo'llaniladi.

4- bob. Vaqtincha sotuvda bo'lmagan tovarlar narxini qayta hisoblash

21. Ro'yxatga oluvchilar sotuvda mavjud bo'lmagan oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlar narxlarini hisoblashning doimiy shartlariga rioya qilishlarini ta'minlashi zarur, ya'ni narxlarni shartli hisoblash faqat mavsumiy tovarlar bo'yicha emas, balki barcha vaqtinchalik sotuvda bo'lmagan tovarlar bo'yicha amalga oshirilishi zarur.

22. Agar tovarning sotuvda bo'lmasligi vaqtinchalik (bir oydan uch oygacha) bo'lsa, u holda mavjud bo'lmagan narx shartli ravishda hisoblanishi va ushbu tovar mansub bo'lgan tovarlar guruhi yoki shunga o'xshash tovar narxining o'zgarishidan foydalanib ma'lumotlar bazasiga kiritiladi, shu bilan birga narxni shartli qayta hisoblash shu turdagi tovarning sotuvda paydo bo'lguniga qadar davom etadi. Bu holat, 22-bandda keltirilgan shartli narxni hisoblash usuli bilan bir xil.

23. Tovar uzoq vaqt sotuvda bo'lmagan hollarda, ushbu tovar turlari to'liq qiyoslanishi mumkin bo'lgan boshqa tovarga almashtiriladi hamda sifati va sotish sharoitlari taqqoslanarli bo'lgan hollarda, sotuvdan yo'qolgan tovar narxi bilan bevosita solishtiriladi.

Ro'yxatga oluvchilarga sotuvdan chiqib ketgan tovar turini shunga o'xshash tovar turi bilan, garchi u boshqa savdo obyektida sotilayotgan bo'lsa ham, qattiq nazorat ostida almashtirishga va sifati, narxi va sotish sharoitlarini taqqoslash mumkin bo'lganda, sotuvdan chiqib ketgan tovar narxi bilan to'g'ridan-to'g'ri solishtirishga ruxsat berish zarur. Agar tovarlar sifati o'rtasida farq mavjud bo'lsa, ro'yxatga oluvchilar aynan o'xshash tovar turi bo'yicha oldingi va joriy oydagi narxlarni qayd etishlari va kechiktirmasdan ushbu ko'rsatkichlardan narxlar dinamikasini o'lchash uchun foydalanishga o'tishlari lozim.

24. Agar buning iloji bo'lmasa, u holda ro'yxatga yangi tovar turini yoki yangi savdo obyektini (viloyat bo'yicha har bir tovar turining eng kamida beshta taqqoslama narxini saqlab qolish uchun) kiritish zarur bo'ladi va tovarning bu yangi turi keyingi oylarda narxlar o'zgarishini hisoblashda foydalaniladi.

“Tovarlar va xizmatlarning iste’mol
narxlari (tariflari) kuzatuvini
tashkil etish hamda indekslarni hisoblash
bo’yicha uslubiy nizom”ga
2-ILOVA

1-bob. Alohida turdagi tovarlarning narxlari yuzasidan statistik kuzatuvning o‘ziga xos xususiyatlari

1. Nooziq-ovqat mahsulotlarning alohida turlari, xususan, kiyim-kechaklar, oyoq kiyim narxlarini ro‘yxatga olishda ularning aniq turlariga batafsil tavsif berish lozim, bunda tovarning xomashyosi tarkibi, rangi, artikuli yoki model raqami, tovar ishlab chiqaruvchi firmaning nomi, tovar ishlab chiqarilgan davlat nomi ko‘rsatilishi tavsiya etiladi;

2. Keng xususiyatga ega bo‘lgan (ya’ni, umumiy, noaniq tavsif), ushbu namuna-tovarga mansub aniq iste’mol xususiyatlariga ega tovar assortimentlari esa iste’mol bozorida sezilarli narx farqlari va mahsulotning nisbatan rangbarangligi bilan tarqalgan tovarlar pozitsiyalari bo‘yicha, ushbu tovarning o‘rtacha narxi hisob-kitobining aniqligini oshirish va narx dinamikasi reprezentativligini ta’minlash uchun, ro‘yxatga ko‘p miqdordagi aniq tovarlar narxlarini tanlab olish tavsiya etiladi;

3. Narxlarini kuzatish uchun kiyim-kechak va oyoq-kiyimlarning aniq pozitsiyalarini tanlab olishda, klassik, an’anaviy andozalarga ustunlik berish tavsiya etiladi;

4. Assortimentning tez-tez o‘zgarib turishi sharoitida, kuzatilayotgan pozitsiyalar ro‘yxatiga sifat tavsiflari bir muncha farq qiladigan, biroq kuzatuv uchun belgilangan namuna-tovarlar to‘plamidagi tovarlarga yaqin bo‘lgan ayrim turdagi kiyim-kechak va oyoq-kiyimlarni kiritilishiga yo‘l qo‘yiladi. Faqat, almashtirilayotgan buyumlarning narx darajasi to‘plamda ko‘zda tutilgan buyumlar narxidan bir oz farq qilgan hollardagina, assortimentdagi bunday almashtirishlarga yo‘l qo‘yish mumkin.

Masalan, “Past poshnali charm tufli” pozitsiyasi bo‘yicha narx ma’lumotlarini yig‘ishda kuzatuvga poshnasiga turli materiallardan qilingan narsalar qo‘yilgan past poshnali charm krossovkalar kiritilishi mumkin.

5. Iste’mol bozorida turli ko‘rinishda, buyum assortimentlari tez-tez o‘zgarib turuvchi, sifat tavsifida va iste’mol xususiyatida kattagina farqi bo‘lgan, shuningdek, narxida katta farqi bor (“Televizorlar”, “Mobil telefon uskunalari”, “Sovutgichlar”, “Fotoapparatlar” va shu kabilar) bo‘lgan tovarlar narxlari kuzatuvda maksimal darajada turli xildagi modellarni kuzatuvga kiritish tavsiya etiladi.

6. Shuni hisobga olish kerakki, bunday tovarning bozorda paydo bo‘lishida tovarning yangiligi omili va nufuzi narxni shakllantirishda sezilarli

ta'sir ko'rsatadi. Bir necha oylar o'tib bozor ushbu tovar bilan to'yinsa, ko'rsatilgan omillar ta'siri susayadi, bunda ko'pincha dastlabki narxining pasayishi kuzatiladi. INIni hisoblashda, bunday tovarlarni, ularning narxi barqarorlashganda qo'shish tavsiya etiladi. Bu turdagi tovarlar buyumning tezda ma'naviy eskirishga moyilligi bilan izohlanadi. Shuning uchun, iste'mol bozorida assortiment o'zgarishlarini doimo kuzatib borish zarur hamda yil davomida eskirgan va bozordan chiqib ketayotgan modellar o'rniga yangisini qo'shgan holda kuzatilayotgan tovarlarni doimiy almashtirib borish lozim.

7. Kuzatuv uchun aniq tovarlarni tanlab olish, shuningdek, assortiment o'zgarishlarini kuzatishda, sotuvchilar bilan so'rov o'tkazishdan tashqari, aniq modellar tavsifiga ega har qanday reklama mahsulotlari, turli kataloglar, preyskurantlar (narxnomalar) va shunga o'xshashlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Masalan: "Mobil telefon uskunalari" bo'yicha – iste'mol bozorida keng tarqalgan firmalar – ishlab chiqargan o'rta narx darajasida bo'lgan komplektidagi (akkumulyator batareyasi va komplektga kiruvchi boshqa aksessuarlar) uyali aloqa telefonlarining alohida model va markalari narxlari kuzatiladi. Uyali aloqa telefoni narxi uyali aloqa tarmog'iga ulanishdagi tarif rejalari to'lovisiz ro'yxatga olinadi.

8. Yil davomida assortimentning sezilarli o'zgarishi munosabati bilan, yangi rusumdagi telefon apparatlari bozorda paydo bo'lishi bilan ularning narxlari ustidan kuzatuvni boshlash tavsiya etiladi, biroq INIni hisoblash uchun, ushbu modellar narxlarini kuzatuvning ikki-uch oylaridan so'ng, qachonki yangilik omillari yo'q bo'lib, narx dinamikasi barqaror ahamiyat kasb etgandan so'ng qo'shiladi. Ushbu modellarni INIni hisoblashdagi to'plamda ularning ma'nan eskirishi natijasida sotish hajmi qisqara boshlagungacha, narxi esa sezilarli pasayguncha saqlab qolish tavsiya etiladi.

Telefon apparati modellarining boshqa tovarlardan farqli o'laroq tezda ma'nan eskirishi tufayli, yil davomida kuzatuv ro'yxatida bir xil modeldagi apparatlarni saqlab turish maqsadga muvofiq emas.

2- bob. Alohida xizmat turlarining narxlari va tariflari yuzasidan statistik kuzatuvning o'ziga xos xususiyatlari

9. Pullik xizmatlar bo'yicha taqqoslama narx (tarif) deganda, aynan shu bitta yoki aynan o'xshash tashkilotlar (bir xil turdagi, mulk shaklidagi va shunga o'xshash) tomonidan ko'rsatilgan aynan bir ish turiga (yoki xizmat ko'rsatish birligi uchun hisoblangan ishlar majmuiga) qayd qilingan narx (tarif) hisoblanadi.

10. Aholiga ko'rsatilayotgan pullik xizmatlarning narx va tariflarini kuzatishni o'ziga xos xususiyatlari mavjud, shuning uchun alohida xizmat turlarini ro'yxatga olishda ularning ba'zi xususiyatlarini inobatga olish zarur.

11. Quyida ayrim turdagi xizmatlar narxlari va tariflarini kuzatish bo'yicha qisqacha ko'rsatmalar keltirilgan.

12. Kiyim tikish – individual kiyim tayyorlash bo'yicha narxlarni qayd etish, bir xil materiallardan, bir xil o'lchamda, bir xil murakkab tarzda tikilgan bir turdagi modellar bo'yicha, asosiy material qiymatini hisobga olmagan holda amalga oshirilishi lozim. Kiyim tikishning o'rtacha narxini aniqlash uchun har xil turdagi ateledda quyidagi kiyim turlarining tikish narxlarini qayd etish zarur:

ayollarning yengil mavsumiy paltosi;
 erkaklar astarli pidjagi (kostyum-shim tarkibidagi pidjakni qo'shgan holda);
 erkaklar shimi;
 ayollar ko'ylagi;
 yubka;
 milliy ko'ylaklar (murakkab bezaklarsiz).

13. Kiyimlarni ta'mirlash – quyidagi xizmat turlarining qiymati kuzatiladi:

barcha turdagi gazlamalardan tikilgan erkaklar shimini ta'mirlash (qisqartirish, uzaytirish va h.k.);

ayollar kiyimini ta'mirlash (gavdaga moslash, etagini to'g'rilash va h.k.);

kostyum, kurtka va palto astarini to'liq almashtirish;
 kurtkaning "zanjirsimon yopqich" ilgagini almashtirish.

14. Kiyimlarni kimyoviy usulda tozalash – xizmatning quyidagi turlari bo'yicha kuzatuv olib boriladi:

qishki palto va kalta paltoni kimyoviy tozalash, dona;
 yengil mavsumiy palto, kalta palto va plashlarni kimyoviy tozalash, dona;
 issiq astarsiz kurtka, kostyumni kimyoviy tozalash, dona;
 shimlarni (sport shimlaridan tashqari) kimyoviy tozalash, dona;
 milliy kiyimlarni kimyoviy tozalash, dona.

15. Hammom va dushxonalar xizmatlari – hammom (umumiy zal)da bir marta yuvinish xizmati kuzatiladi.

16. Soatlarni ta'mirlash – narxlarni qayd etish ustaxonada amalga oshiriladi:

mexanik qo'l soatlarni umumiy ta'mirlash;
 strelkali elektron-mexanik qo'l soatlarini umumiy ta'mirlash;
 raqamli elektron qo'l soatlarini umumiy ta'mirlash.

17. Poyafzal ta'mirlash – kuzatuv ustaxonada quyidagi xizmat turlari bo'yicha kuzatiladi (xizmat narxiga material qiymatini qo'shgan holda ro'yxatga olinadi):

eraklar va ayollar oyoq kiyimlarini ta'mirlash:
poshna ostiga dag'al (charm, rezina) qoqtirish, juft;
old qismining ostiga rezina qo'yish, juft;
“zanjirsimon yopqich” ilgagini almashtirish, juft;
oyoq kiyimni tiklash, juft.

18. Turar joylarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar – usta-quruvchilar tomonidan bajariladigan ishlar qiymati (materiallar qiymatini qo'shmagan holda) kuzatiladi:

bo'yash va gulqog'oz yopishtirish ishlarini bajarish: shiftni oqlash yoki bo'yash 10 kv.m maydon uchun;

kafel plitkalarini terish ishlarini bajarish: xonaning ichki devorlariga kafel plitkalari terish (tayyorlov ishlari qiymatini qo'shmagan holda (eski kafellarni ko'chirish, devorlarni tekislash va boshqalar)) – 1 m² uchun.

19. Mebellarni, uy-ro'zg'or asboblari va tukli gilamlarni ta'mirlash va o'rnatish – ustaxonada quyidagi xizmat turlari kuzatiladi:

divan, divan-krovat va shunga o'xshash buyumlarni ta'mirlash (simli setka, prujinali blokklar yoki to'shaladigan materiallarni almashtirish yoki almashtirmasdan, sirtiga qoplanadigan materialini almashtirish bilan);

stul, banketka va kreslolarini ta'mirlash (prujina va elastik asosini almashtirish, sirtiga qoplanadigan materialini almashtirish, to'shama qurilmasini o'rnatish).

20. Shaxsiy foydalanish uchun elektr uskunalarni ta'mirlash – televizor, radio, muzlatkich, kir yuvish va tikuv mashinalari, mikroto'liqlik pech, changyutgichlarni ta'mirlash bo'yicha narxlarni ro'yxatga olish amalga oshiriladi. Bunda, ta'mirlash ustaxonasining qabul qiluvchi ustasi bilan kelishgan holda ro'yxatga oluvchi tomonidan tanlab olingan aynan bir ish turlari (rele, ta'minot blokini almashtirish, freon to'ldirish va boshqalar) va almashtiriladigan ehtiyot qismlar guruhi o'zgarmasligi zarur.

21. Shaxsiy transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash – kuzatuv uchun tanlab olingan texnik xizmat ko'rsatish shoxobchasida eng ommaviy xizmat ko'rsatiladigan avtomobil rusumlari tanlab olinadi. Narxlarni qayd etish, turli mulkchilik shaklidagi texnik xizmat ko'rsatish shoxobchalarida quyidagi xizmat turlari bo'yicha amalga oshiriladi: moy almashtirish, g'ildiraklarni muvozanatlash, klapanlarni sozlash, tishli valni almashtirish, motorni ta'mirlash va h.k.

22. Fotografiya (suratga olish) sohasidagi xizmatlar – narxni ro'yxatga olish quyidagilar bo'yicha amalga oshiriladi:

hujjatlar uchun rasm tayyorlash, to'rt dona rasm uchun;

suratga olish maydonida rangli rasm (bir yoki uch kishigacha, o'lchami 10×15 bo'lgan) tayyorlash, bir dona rasm uchun;

Raqamli tashuvchilardan 10×15 o'lchamdagi rasm chiqarish, bir dona rasm uchun.

23. Ijara xizmati – bir sutka uchun shisha idishlar, to'y va oqshom liboslari, mebellar ijarasi qiymati kuzatiladi.

24. Diniy xizmatlar – quyidagi xizmat turlari uchun narxlarni qayd etish tavsiya etiladi:

nikoh o'qish va nikohlash;

turli diniy marosim tadbirlarini o'tkazish (aqiqa, cho'qintirish, xotirlash, duolar o'qish va h.k.);

qabrni an'anaviy usulda qazish;

dafn matosi bilan qoplangan (1,70×2,00 m o'lchamdagi) tobut;

maxsus transportdan foydalanish (Otayo'l, Foton va boshqalar);

qabrtoshi, yodgorliklar tayyorlash.

25. Tashish (ko'chish) va saqlash bo'yicha xizmatlar – belgilangan masofaga aholi uchun avtotransportda mebel, qurilish materiallari va boshqa turdagi yuklarni yetkazib berish narxlari qayd etiladi. Bunda, yuk tashilayotgan avtomobil rusumining qiyosiylikiga alohida ahamiyat berish zarur.

26. Hujjatlardan nusxa ko'chirish (kserokopiyalash) bo'yicha xizmatlar – hujjatning bir betidan nusxa olish narxi kuzatiladi (A4 formatli qog'oz).

27. Sartaroshxonalar xizmatlari – turli mulkchilik shaklidagi sataroshxonalarning ayollar zalida ayollarning modali soch kesish (boshni yuvish, sochni kesish, fen bilan ukladka qilish, lak bilan bo'yash) narxi ro'yxatga olinadi. Erkaklar soch kestirishi (bosh yuvishi bilan) – erkaklar zalida ro'yxatga olinadi.

28. Ko'p xonadonli uylarda ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lash – xususiy va xususiylashtirilgan uy-joylardan foydalanish uchun to'lov xarajatlari kuzatiladi. Tanlanadigan binolar turi, tavsifi o'zgarmasdan, narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar esa XUJMSHda ro'yxatga olinadi. Ro'yxatga olish blankasida bir oyda xonadonning 1 m² uchun bir oylik hisoblangan to'lovi qayd etiladi.

29. Sovuq suv va kanalizatsiya uchun haq to'lash barcha shart-sharoitga ega bo'lgan xonadonda bir oyda 1 m³ uchun to'lovlar kuzatiladi.

30. Elektr energiyasi uchun haq to'lash – elektr plitasi o'rnatilmagan xonadonlardagi aholiga uzatilgan 100 kv/soat elektr-energiyasi uchun to'lov kuzatuvga olinishi lozim. Agar elektr energiyasidan foydalanganlik uchun tariflar elektr energiyasi iste'moli hajmidan kelib chiqqan holda (limit doirasida va limitdan yuqori) belgilanadigan bo'lsa, u holda, dastlabki bosqichda har bir iste'mol hajmi (limit doirasida va limitdan yuqori) uchun belgilangan tariflar alohida ro'yxatga olinadi. Ikkinchi bosqichda, aholi tomonidan limit doirasida

va limitdan yuqori elektr energiyasini sotib olish uchun qilingan xarajatlar tuzilmasi yoki mas'ul vazirlik tomonidan o'tgan yilda tariflarning mazkur toifalari bo'yicha ko'rilgan daromad tuzilmasi to'g'risidagi ma'lumotlardan salmoq vazn koeffitsiyentlari sifatida foydalangan holda hisoblanadigan o'rtacha tortilgan tariflar shakllantiriladi.

31. Taqsimlash tarmoqlari orqali uzatiluvchi tabiiy gaz – tarmoqdagi gaz bo'yicha, gaz kolonkasisiz gaz plitasi bor, gaz o'lhagich hisoblagich asboblari bilan ta'minlangan uy kvartira (xonadon)lardagi 1 m³ gaz uchun to'lanadigan tariflar kuzatiladi. Agar tabiiy gazdan fodalanganlik uchun tariflar ularning iste'mol hajmidan kelib chiqib belgilanadigan bo'lsa, u holda tabiiy gaz uchun ham elektr energiyasini hisoblashda foydalaniladigan uslubiy yondashuv qo'llaniladi.

32. Suyultirilgan gaz uchun haq to'lash – 20 kg (50 l sig'imli)ga hisoblangan bitta ballon uchun narx kuzatiladi.

33. Markaziy isitish uchun haq to'lash – uy-joy fondlarining markazlashgan isitish tizimi tariflari bo'yicha kuzatuv "Issiqlikquvvati" korxonalari ma'lumotlari asosida olib boriladi. Bir oyda bir kv.m. isitiladigan yashash maydonining 1 m² uchun markazlashgan isitish tizimi tarifi ro'yxatga olinadi. Ikki isitish mavsumi davomida tariflarning o'zgarmasligini hisobga olgan holda, masvum bo'lmagan oylarda ushbu xizmat bo'yicha narx indeksi 100 % ga teng bo'ladi va tariflar indeksatsiya qilinmaydi va shartli hisoblanmaydi.

34. Maishiy chiqindi uchun haq to'lash – xususiy va ko'p kvartirali xonadonli uylarda qattiq maishiy chiqindilarni olib ketish uchun bir oyda bir kishidan olinadigan tarif kuzatiladi.

35. Yo'lovchilarni taksida tashish – taksida bir martalik 10 km masofaga borish narxi kuzatiladi.

36. Shaharlararo avtobusda yo'lovchi tashish – yumshoq va orqaga egiladigan o'rindiqli avtobuslar, mikroavtobuslar yoki yengil mashinalarda shaharlararo qatnovdagi chiptaning narxi kuzatiladi. Transport yo'nalishlari va turlari ko'p qatnovga egaligidan kelib chiqib tanlanishi mumkin.

37. Shahar atrofida qatnovchi poyezd – shahar atrofidagi yo'nalishda qatnovchi poyezdda bir martalik qatnovga chipta narxi kuzatiladi.

38. Uzoq masofaga qatnaydigan poyezdda yo'l haqi, havo transportida yo'lovchilarni tashish hamda mobil va statsionar aloqa va internet xizmatlari tariflarini kuzatish uchun – "Transportda yo'lovchi va yuk tashish (uzatish) tariflari to'g'risida hisobot" va "Aloqa xizmati tariflari to'g'risidagi hisobot" statistika hisobotlaridagi ma'lumotlar axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi.

39. Kinoteatrlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha narxlarni qayd etish uchun, statsionar kinoqurilmalarga ega bo'lgan bitta kinoteatr va klub tanlab olinadi va kinoteatrlardagi kinoseanslarga belgilangan narxlar ro'yxatga olinadi. Bir qismli kinoseansga kattalar uchun kechki seansdagi bitta chiptaning narxi kuzatiladi.

40. Teatrlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni kuzatish uchun drama yoki musiqali-drama teatri tanlab olinadi. Tanlab olingan teatrdagi kechki spektakldagi kattalar uchun bitta chiptaning narxi qayd etiladi.

41. Konsert zallarining xizmatlari narxlarini kuzatish uchun, statsionar konsert tashkilotlarining konsertlari, shuningdek, xorijiy ijrochilarni (taqqoslash mumkin bo'lgan shartlarda) qo'shgan holda gastrol estrada jamoalarining estrada konsertlari o'tkazilib turiluvchi, nisbatan tez-tez foydalaniladigan konsert zallari tanlab olinadi va kattalar uchun bitta chiptaning narxi qayd etiladi.

42. Muzeylar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar – muzeylar va ko'rgazmalar xizmatlari narxlari kuzatuvlari o'lkashunoslik yoki san'at muzeylarida olib boriladi. Agar shahar (tuman)da bunday muzeylar mavjud bo'lmasa, kuzatuv boshqa turdagi muzeylarda olib boriladi. Tanlab olingan muzeyda katta yoshdagi tashrif buyuruvchi uchun kirish chiptasining narxi (agar mavjud bo'lsa, ekskursiya xizmati bilan yoki ekskursiya xizmatisiz) qayd etiladi.

43. Hayvonot bog'larining xizmatlari – kattalar va/yoki bola uchun kirish chiptasi narxi kuzatiladi. Kattalar (pensiya yoshiga yetmagan shaxslar, nafaqaxo'rlar va boshqalar), shuningdek, bolalar (masalan, 7 yoshgacha bo'lgan bolalar va 7 yoshdan katta bolalar) uchun turli toifadagi kirish chiptalari narxlari o'zaro farqlangan taqdirda har bir toifadagi narxlar ro'yxatga olinadi.

44. Maktabgacha ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha umumiy turdagi, davlat va xususiy shakldagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiya qilish uchun to'lanadigan haq miqdori kuzatiladi. Narx sifatida tashkilotlar (homiylar) yordam mablag'larini qo'shmagan holda, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ota-onalar tomonidan to'langan pul qayd etiladi. Kuzatuv uchun umumiy va ixtisoslashtirilgan yo'nalishdagi bolalar bog'chasi tanlab olinadi. Shahar va tuman markazlarida bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tanlab olishda, mos ravishda besh kunlik va olti kunlik ish haftasiga ega bo'lgan muassasalarni kiritish zarur.

45. Oliy o'quv yurtlarida shartnoma asosida o'qish uchun to'lov kuzatuvini mamlakatdagi davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlarida olib boriladi. Bir kishi uchun bir semestrga to'lanadigan to'lov miqdori ro'yxatga olinadi.

46. Chet tili kurslari va shunga o'xshash o'quv kurslari xizmatlari bo'yicha ikki-uch oy davom etadigan, ingliz yoki italangan boshqa bir chet tili bo'yicha boshlang'ich kursda bir kishi uchun bitta mashg'ulotga to'lanadigan narxlar ro'yxatga olinadi.

47. Haydovchilarni tayyorlash kurslari bo'yicha bir kishi uchun B yoki B,C toifasi bo'yicha bitta to'liq kurs uchun sarflanadigan to'lov narxi ro'yxatga olinadi. Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash pullik asosida o'qitadigan o'quv markazlari, avtomaktablar va boshqa o'quv tashkilotlarida olib boriladi.

48. Sport tadbirlarini tashkil etish bo'yicha xizmatlar tariflarni kuzatish ikki-uchta sport muassasalarida amalga oshiriladi. Sport muassasalari xizmatlari narxlarini qayd etish quyidagi asosiy turlar bo'yicha olib boriladi: suzish havzasi, sog'lomlashtirish markazi, tennis korti va boshqalarga qatnash uchun oylik abonement qiymati.

49. Dam olish markazlari, kempinglar, yoshlar yotoqxonolari va shu kabi mehmonxona xizmatlari sihatgoh, dam olish va pansionat maskanlari hamda yo'llanmalari sotiladigan boshqa ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari xizmatlari narxlari kuzatiladi. Ro'yxatga olish yo'llanmaning ijtimoiy sug'urta jamg'armasi va boshqa shunga o'xshash jamg'armalarning to'lovlarini qo'shgan holdagi amaldagi qiymati bo'yicha bajariladi. Dam olish va davolanish joyigacha bo'lgan yo'l haqi hisobga olinmaydi. Ro'yxatga bitta yashovchining bir kuni (yotog'i bilan) qiymati kiritilishi lozim. Bir kunining narxi – yo'llanma qiymatini kunlar soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Agar sihatgoh oilaviy (masalan, ona va bola) davolanish va dam olish uchun mo'ljallangan bo'lsa, u holda yo'llanma qiymatini oila a'zolari soniga bo'lish, so'ngra dam oluvchining bir kuni qiymati hisoblab topilishi kerak.

50. Kompleks dam olishni tashkil etish bo'yicha xizmatlar narxlarini qayd etish, har oyda viloyat (shahar) sayyohlik firmalari, agentliklari va ekskursiya byurolarida amalga oshiriladi. Turistik sayohat xizmatlari narxlari, bitta turistning bir kuni uchun belgilanadi va yashash, ovqatlanish, ekskursiya hamda transport xizmatlari ko'rsatish qiymatini o'z ichiga oladi.

51. Otellar, motellar, mehmonxonalar va shu kabi mehmonxona xizmatlari bo'yicha ikki kishilik xonadagi bitta joy uchun to'lov qiymati kuzatiladi.

52. Ambulatoriyada davolash va reabilitatsiya xizmatlari bo'yicha kuzatuvlar bemorlarga qabul qilgan holda yordam ko'rsatuvchi, biroq, o'zining tarkibida yotoq joylarga (koyka) ega bo'lmagan tibbiyot muassasalarida o'tkaziladi. Quyida tavsiya etilayotgan pullik xizmatlar turlari bo'yicha amaldagi narxlar ro'yxatga olinadi:

terapevt yoki boshqa turli yo'nalishlardagi (kardiolog, endokrinolog, nevropatolog, urolog va h.k.) shifokor-mutaxassislar maslahati (konsultatsiyasi);

tibbiy muolajalarni amalga oshirish (LOR-muolajasi, yaralarni tozalash va h.k.).

53. Statsionar davolash va reabilitatsiya xizmatlari bo'yicha kuzatuvlar bemorlar uchun yotoq joylari (koykalari) mavjud bo'lgan tibbiyot-davolash muassasalarida olib boriladi. 1 ta bemor uchun 1 kunlik (sutkalik) pullik xizmatning amaldagi narxi ro'yxatga olinadi.

54. Tibbiyot laboratoriyalari xizmatlari bo'yicha turli tashxis (diagnostika) tahlillarini (qon, siydik tahlillari, bakteriologik, sitologik tahlillar) o'tkazish uchun to'lov miqdori kuzatiladi.

55. Diagnostika vizualizatsiyasi xizmatlari bo'yicha UZI, MRT, KT, rentgen, PET-skaner va h.k. xizmatlari uchun to'lov miqdori ro'yxatga olinadi.

56. Stomatologik profilaktik xizmatlar narxlarini kuzatishda, materiallar qiymatini hisobga olgan holda davolash, qayta tiklash, buyumlarni tayyorlash (oltin va boshqa qimmatbaho metallar va qotishmalardan tashqari) narxining ro'yxatga olinishini inobatga olish zarur.

Kuzatuvni quyidagi stomatologiya xizmati turlari bo'yicha amalga oshirish tavsiya etiladi:

oziq tishni plombalash;

oziq tishni davolash;

mahalliy anesteziya bilan oziq tishni olib tashlash;

tish qoplamasini tayyorlash (metallardan yoki keramikadan).

57. "Kafelarda tayyor ovqat" va "Oshxonalarda tayyor ovqat" pozitsiyalari bo'yicha kuzatuv uchun, ushbu oshxona hamda kafelardagi ko'proq iste'mol qilinadigan 2 yoki 3 xil odatiy taomlar to'plamini va uzoq vaqt davomida ushbu umumovqatlanish joyida kuzatish imkonini bo'ladigan narxlarni shakllantirish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, ushbu to'plamga (uchta taomdan iborat) o'rtacha narxdagi taomlarni kiritish tavsiya etiladi, ya'ni so'nggi qiymatdagi narxga (o'ta yuqori yoki o'ta past) ega bo'lgan taomlarning narxlarini ro'yxatga olish kerak emas.

Kuzatuvga turli umumiy ovqatlanish joylarida, birinchisiga sho'rva, lag'mon, karam sho'rva va boshqalar, ikkinchisiga osh, manti, bifshteks yoki garnirli kotlet, kabob va boshqalarni tanlab olgan holda, bir kishi hisobiga bir porsiyadan iborat taomlar tarkibini, shuningdek, choy va non (obi non)ni kiritish zarur. Tushlik tarkibiga salat va gazaklarni kiritish tavsiya etilmaydi.

Kuzatuv obyektlari tanlovining namunaviyligini ta'minlash va hududning umumiy ovqatlanish sohasini o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirish maqsadida, iste'mol bozorlaridagi narxlar kuzatuvda qatnashish uchun, ma'muriy markazda 5 tagacha va har bir tumanda 3 tagacha umumiy ovqatlanish joylari tanlab olinishi zarur.

Shartli misol ko'rinishida "Oshxonalarda tayyor ovqat":

№	Nomi	Sana	Tushlik tarkibi	Qiymati, so'mda
1.	1-sonli oshxona	15.08.20	Sho'rva (12 000 so'm), osh (15 000 so'm), choy (2 000 so'm), 0,5 obi non (1 500 so'm)	30 500
2.	2-sonli oshxona	16.08.20	Lag'mon (12 000 so'm), bifshteks qaylasi bilan (13 000 so'm), choy (2 000 so'm), 0,5 obi non (1 250 so'm)	28 250
3.	3-sonli oshxona	15.08.20	Karam sho'rva (10 000 so'm), kotlet qaylasi bilan (12 000 so'm), 1 stakan kompot (2 000 so'm), 4 bo'lak non (1 000 so'm)	25 000
O'rtacha narx				27 823,99

Shartli misol ko'rinishida "Kafelarda tayyor ovqat":

№	Kafe nomi	Sana	Tushlik (kechki ovqat) tarkibi	Qiymati, so'mda
1.	1-sonli kafe	17.12.20	0,5 mastava (10 000 so'm), 4 dona manti (12 000 so'm), limon choy (4 000 so'm), 4 bo'lak non (1 000 so'm)	27 000
2.	2-sonli kafe	18.12.20	0,5 lag'mon (10 000 so'm), bifshteks qaylasi bilan (14 000 so'm), choy (3 000 so'm), 0,5 obi non (1 500 so'm)	28 500
3.	3-sonli kafe	15.12.20	Tovuq ugrasi (12 000 so'm), 0,5 osh (15 000 so'm), choy (2 000 so'm), 0,5 obi non (1 500 so'm)	30 500
4.	4-sonli kafe	15.12.20	Sho'rva (12 000 so'm), 2 dona kabob (16 000 so'm), ko'k choy (2 000 so'm), 4 bo'lak non (1 000 so'm)	31 000
5.	5-sonli kafe	16.12.20	Qo'y go'shtidan 4 dona kabob (32 000 so'm), choy (2 000 so'm), 0,5 obi non (1 500 so'm)	35 500
6.	6-sonli kafe	19.12.20	Ko'za sho'rva (16 000 so'm), 0,5 osh (12 000 so'm), choy (2 000 so'm), obi non (3 000 sum)	33 000
O'rtacha narx				30 791,82

Aholi orasida ommalashib borayotgan "Fast-food" taomxonalaridagi narxlar "Boshqa oshxonalar, kafeteriyalar va gazakxonalar" holatlari bo'yicha kuzatiladi (masalan, hot-dog, lavash, hamburger, somsa, pizza va boshqalar). 1 dona uchun narx ro'yxatga olinadi.

58. Mikromoliyaviy tashkilotlar va lombardlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar kuzatuvida garovga muayyan qimmatliklarni (ko'chmas mulk, avtomobil, qimmatbaho toshlar va b.) qo'ygan holda qarzga pul beruvchi xususiy moliyaviy tashkilotlar (firma, korxona) va lombardlar xizmatlari kuzatiladi. Bunda, olingan qarzni qaytarishdagi ustama foiz miqdori ro'yxatga olinadi.

59. Sug'urtalash xizmatlari – Sug'urtalash tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha, shahar (tuman)dagi sug'urtalash bo'limlarida quyidagi xizmatlar bo'yicha amaldagi narxlarni qayd etib borish zarur:

shaxsiy transport vositalarini sug'urtalash (1 yil uchun);

banklar kreditlarini sug'urtalash.

60. Bank muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar kuzatuvda shahar (tuman) banklarining markaziy bo'limlarida quyidagi xizmatlarning amaldagi narxlari qayd etiladi:

plastik kartalarni yo'qolganda yoki ishdan chiqqan holatlarda almashtirib berish;

iste'mol krediti foiz stavkasi (yillik hisobda);

bankomatlar orqali plastik kartalardan naqd pul yechib olish foiz ushlanmasi.

61. Pul o'tkazmalari uchun to'lovlarni kuzatishda – “Western Union”, “Unistream”, “Money Gram”, “Золотая Корона” va boshqa shu kabi operatorlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun komissiya to'lovlari qiymati qayd etiladi;

62. Elektron to'lov tizimlari orqali pul vositalarini o'tkazish bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlarni kuzatishda Payme, Click va boshqa mobil bank ilovalaridan pul mablag'larini o'tkazishda foydalanganlik uchun komissiya to'lovi miqdori qayd etiladi.

63. Huquqiy tusdagi xizmatlar bo'yicha notarial idoralar va yuridik maslahatxonalar tomonidan aholiga ko'rsatadigan xizmatlar kuzatiladi.

Aholiga ko'rsatiladigan notarial xizmatlarning amaldagi narxlarini, notariusning qaydnomalar kitobidan yoki muayyan notarial harakatlarning qaydnomalari kitobi orqali qayd etish lozim bo'ladi. Notarial idoralar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar narxlarini qayd etishda, asosiy xizmat narxiga ustama shaklida undiriladigan qo'shimcha to'lovlar (hujjatlarni tuzish va rasmiylashtirish, xonadonlarga borish va b.) hisobga olinmaydi.

Huquqiy tusdagi xizmatlar bo'yicha amaldagi narxlarni qayd etish, yuridik maslahatxonalarda, to'langan kvitansiyalar bo'yicha yoki bir kun davomida advokat tomonidan huquqiy tusdagi pullik og'zaki maslahatlar va hujjatlar hisobini ro'yxatga olish qaydnomasi bo'yicha amalga oshiriladi.

“Tovarlar va xizmatlarning iste’mol
narxлари (tariflari) kuzatuvini tashkil etish
hamda indekslarni hisoblash bo‘yicha
uslubiy nizom”ga
3-ILOVA

**Iste’mol narxлари indeksini hisoblashda
kuzatuvga kiritilgan shahar va tumanlar ro‘yxati**

№	Hududlar nomi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	
1.	Nukus sh.
	<i>tumanlar:</i>
2.	Amudaryo
3.	Qo‘ng‘irot
4.	To‘rtko‘l
Andijon viloyati	
1.	Andijon sh.
	<i>tumanlar:</i>
2.	Asaka
3.	Izboskan
4.	Shahrixon
Buxoro viloyati	
1.	Buxoro sh.
	<i>tumanlar:</i>
2.	Vobkent
3.	G‘ijduvon
4.	Jondor
Jizzax viloyati	
1.	Jizzax sh.
	<i>tumanlar:</i>
2.	G‘allaorol
3.	Zomin
4.	Paxtakor
Qashqadaryo viloyati	
1.	Qarshi sh.
2.	Shahrisabz sh.
	<i>tumanlar:</i>
3.	Kitob
4.	Chiroqchi

№	Hududlar nomi
	Navoiy viloyati
1.	Navoiy sh.
2.	Zarafshon sh.
	<i>tumanlar:</i>
3.	Qiziltepa
4.	Xatirchi
	Namangan viloyati
1.	Namangan sh.
	<i>tumanlar:</i>
2.	Kosonsoy
3.	Norin
4.	Chust
	Samarqand viloyati
1.	Samarqand sh.
2.	Kattaqo‘rg‘on sh.
	<i>tumanlar:</i>
3.	Bulung‘ur
4.	Ishtixon
5.	Urgut
	Surxondaryo viloyati
1.	Termiz sh.
	<i>tumanlar:</i>
2.	Denov
3.	Qumqo‘rg‘on
4.	Sherobod
	Sirdaryo viloyati
1.	Guliston sh.
2.	Yangiyer sh.
	<i>tumanlar:</i>
3.	Sirdaryo
	Toshkent viloyati
1.	Nurafshon sh.
2.	Angren sh.
3.	Bekobod sh.
4.	Chirchiq sh.

№	Hududlar nomi
5.	Yangiyo‘l sh. <i>tumanlar:</i>
6.	Parkent
Farg‘ona viloyati	
1.	Farg‘ona sh.
2.	Qo‘qon sh.
3.	Marg‘ilon sh. <i>tumanlar:</i>
4.	Oltiariq
5.	Quva
Xorazm viloyati	
1.	Urganch sh.
2.	Xiva sh. <i>tumanlar:</i>
3.	Gurlan
4.	Xazorasp
Toshkent shahri	
1-hudud	
-	Yunusobod tumani
-	Mirzo-Ulug‘bek tumani
2-hudud	
-	Uchtepa tumani
-	Chilonzor tumani
-	Yangiheyot tumani
3-hudud	
-	Yashnobod tumani
-	Bektemir tumani
4-hudud	
-	Shayxontohur tumani
-	Olmazor tumani
5-hudud	
-	Mirobod tumani
-	Yakkasaroy tumani
-	Sirg‘ali tumani

“Tovarlar va xizmatlarning iste’mol
narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish
hamda indekslarni hisoblash bo‘yicha
uslubiy nizom”ga
4-ILOVA

**Iste’mol narxlari indeksini hisoblashda
kuzatuvga kiritilgan tovar va xizmatlar ro‘yxati**

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O‘lchov birligi
Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar		
1.	Uzun boshqli guruch	kg
2.	Yumaloq boshqli guruch	kg
3.	Guruch oqshog‘i	kg
4.	Manniy yormasi	kg
5.	Grechixa (doni)	kg
6.	Suli yormasi	kg
7.	Arpa yormasi	kg
8.	So‘k (yorma), jumladan briketlarda	kg
9.	Oliy navli bug‘doy uni	kg
10.	Birinchi navli bug‘doy uni	kg
11.	Oliy navli bug‘doy unidan tayyorlangan non	kg
12.	Birinchi navli bug‘doy unidan tayyorlangan non	kg
13.	Obinon	kg
14.	Javdar va javdar-bug‘doy noni	kg
15.	Bulochka, bublik (teshik kulcha)	kg
16.	Suxari (qoq non), qarsillama non, galeta	kg
17.	Pecheniy	kg
18.	Vafli	kg
19.	Pryaniklar	kg
20.	Tortlar	kg
21.	Turli xil pirojniylar	kg
22.	Kekslar	kg
23.	Korjiklar	dona
24.	Chak-chak	kg
25.	Tayyor nonushtalar shaklidagi boshqli donlar (“quruq nonushtalar”)	kg
26.	Vermishel	kg
27.	Ugra (shu jumladan lag‘mon uchun)	kg
28.	Makaronlar, spagetti	kg

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
29.	Shakldor mahsulotlar (chig'anoqlar, yulduzchalar va shu kabilar)	kg
30.	Chuchvaralar va shu kabi mahsulotlar, xom	kg
31.	Tez tayyorlanadigan ugra	100 gr
32.	Pop-korn	kg
33.	Non-bulka mahsulotlarini tayyorlash uchun aralashmalar va xamir	kg
34.	Mol go'shti (suyaksiz go'shtidan tashqari)	kg
35.	Suyaksiz mol go'shti	kg
36.	Qo'y go'shti	kg
37.	Cho'chqa go'shti	kg
38.	Parranda go'shti (sonlaridan tashqari)	kg
39.	Tovuq boldiri, son va boshqa qismlari	kg
40.	Qiyma (yog'li, yarim yog'li)	kg
41.	Yangi so'yilgan, sovutilgan yoki muzlatilgan jigar	kg
42.	Yangi so'yilgan, sovutilgan yoki muzlatilgan mol oyoqlari	1 dona
43.	Yangi so'yilgan, sovutilgan yoki muzlatilgan mol tili	kg
44.	Pishirilgan kolbasa	kg
45.	Sosiska va sardelkalar	kg
46.	Dudlangan va yarim dudlangan kolbasa	kg
47.	Qazi	kg
48.	Konservalangan dimlangan mol go'shti	350 gr
49.	Tirik, yangi, sovutilgan baliq	kg
50.	Muzlatilgan baliq	kg
51.	Quritilgan, tuzlangan, namakobga solingan yoki dudlangan baliq	kg
52.	Moyga solingan sardinalar	350 gr
53.	Moyga solingan shprotlar	350 gr
54.	Pomidor qaylasiga solingan kilka	350 gr
55.	Xom sut (yangi sog'ilgan)	1 l
56.	Pasterizatsiya qilingan sut	1 l
57.	Qaymoq (slivki)	kg
58.	Quyultirilgan sut	400 gr
59.	Quruq qaymoq	kg
60.	Qattiq pishloqlar	kg
61.	Yumshoq pishloqlar, kolbasa shaklidagi pishloq	kg
62.	Brinza	kg
63.	Tvorog	kg
64.	Tvorogli siroklar va sirok massasi	50 gr

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
65.	Tayoqcha shaklidagi pishloqlar	kg
66.	Smetana	kg
67.	Kefir, qatiq	1 l
68.	Yogurt	500 gr
69.	Suzma	kg
70.	Qurt	kg
71.	Tovuq tuxumlari	10 dona
72.	Paxta moyi	1 l
73.	Kungaboqar moyi	1 l
74.	Sariyog'	kg
75.	Margarin	kg
76.	Xom hayvon yog'lari, dumba yog'i va shu kabilar (shpikdan tashqari)	kg
77.	Cho'chqa yog'i, shpik	kg
78.	Bananlar	kg
79.	Limonlar	kg
80.	Mandarinlar	kg
81.	Apelsinlar	kg
82.	Olmalar	kg
83.	Noklar	kg
84.	Shaftolilar	kg
85.	Uzumlar	kg
86.	Yangi uzilgan tarvuzlar	kg
87.	Yangi uzilgan qovunlar	kg
88.	Anorlar	kg
89.	Mayiz, kishmish	kg
90.	Bargak, turshak	kg
91.	Quritilgan na'matak	kg
92.	Po'choqli yoki po'chog'i tozalangan yong'oqlar	kg
93.	Po'choqli yoki po'chog'i tozalangan pista	kg
94.	Po'choqli yoki po'chog'i tozalangan bodom	kg
95.	Po'choqli yoki po'chog'i tozalangan yeryong'oqlar	kg
96.	Tuzli o'rik danaklari	kg
97.	Qovurilgan kungaboqar urug'i	kg
98.	Konservalangan mevalar, kompot (murabbo va shu kabi mahsulotlardan tashqari)	1 l
99.	Karam	kg
100.	Yangi uzilgan yoki sovutilgan ko'katlar (ukrop, petrushka, yashil kashnich va shu kabi)	kg

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
101.	Yangi uzilgan bodringlar	kg
102.	Yangi uzilgan pomidorlar	kg
103.	Baqlajonlar	kg
104.	Yangi uzilgan bulg'or qalampiri	kg
105.	Qovoq	kg
106.	Lavlagi	kg
107.	Sabzi	kg
108.	Sholg'om	kg
109.	Sarimsoq	kg
110.	Piyoz	kg
111.	Turp	kg
112.	Yangi uzilgan, sovutilgan va marinadlangan qo'ziqorinlar	kg
113.	Kartoshka	kg
114.	Loviya	kg
115.	No'xat	kg
116.	Mosh	kg
117.	Tuzlangan yoki marinadlangan bodringlar	kg
118.	Tuzlangan karam	kg
119.	Tuzlangan yoki marinadlangan pomidorlar	kg
120.	Pomidor pastasi	1 l
121.	Kartoshka chips	kg
122.	Konservalangan no'xat	400 gr
123.	Shakar	kg
124.	Oq qand	kg
125.	Novvot	kg
126.	Mevali murabbo, jem	1 l
127.	Marmelad	kg
128.	Asal	kg
129.	Kakao	kg
130.	Shokolad plitkasi	100 gr
131.	Shokoladli konfetlar, batonchiklar	kg
132.	Shokoladli krem	kg
133.	Muzqaymoq	kg
134.	Karamel konfetlar	kg
135.	Holva, parvarda va shu kabi milliy shirinlik turlari	kg
136.	Zefir	kg
137.	Saqich	1 qadoq

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
138.	Tayyor oziq-ovqat taomlari	1 porsiya
139.	Bolalar ovqatlanishi uchun quruq sutli aralashmalar	kg
140.	Bolalar ovqatlanishi uchun bo'tqalar	kg
141.	Tuz	kg
142.	Mayonez	kg
143.	Uksus	250 gr
144.	Pomidor sousi, ketchup	kg
145.	Lavr yaprog'i	100 gr
146.	Kashnich urug'i	100 gr
147.	Murch va qizil qalampir	100 gr
148.	Zira	100 gr
149.	Tayyor ziravorlar	100 gr
150.	Xamirturush	50 gr
151.	Ovqatga ishlatiladigan soda	kg
152.	Meva va sabzavotlardan tayyorlangan soklar	l
153.	Kofe	kg
154.	Tabiiy kofe donalari	kg
155.	Qora choy	kg
156.	Ko'k choy	kg
157.	Kakao ichimliklari	l
158.	Mineral, gazlangan suvlar	l
159.	Koka-kola, limonad va shu kabi ichimliklar	l
160.	Kvas	l
161.	Mors	l
162.	Choy ekstrakti asosidagi salqin ichimliklar	l
163.	Energetik ichimliklar	l
	Spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari	
164.	Aroq	l
165.	Konyak	l
166.	Uzum vinosi	0,75 litr
167.	Pivo	l
168.	Sigaretlar	1 quti
169.	Nosvoy	1 quti
	Kiyim va poyabzal	
170.	Kiyim tayyorlash uchun ip gazlamalar	metr
171.	Kiyim tayyorlash uchun jun gazlamalar	metr
172.	Kiyim tayyorlash uchun ipak gazlamalar	metr

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
173.	Kiyim tayyorlash uchun sun'iy gazlamalar	metr
174.	Erkaklar uchun qishki palto, kalta palto	dona
175.	Erkaklar uchun qishki kurtka	dona
176.	Erkaklar uchun yengil (demisezon) kurtka	dona
177.	Erkaklar uchun charm kurtka	dona
178.	O'g'il bolalar uchun qishki kurtka	dona
179.	O'g'il bolalar uchun yengil (demisezon) kurtka	dona
180.	O'g'il bolalar uchun charm kurtka	dona
181.	Erkaklar uchun plash	dona
182.	Erkaklar uchun choponlar, milliy ustki kamzullar, to'nlar	dona
183.	Erkaklar uchun kostyum	komplekt
184.	O'g'il bolalar uchun kostyum	komplekt
185.	Erkaklar uchun pidjaklar	dona
186.	O'g'il bolalar uchun pidjaklar	dona
187.	Erkaklar uchun sviterlar, jemperlar, puloverlar	dona
188.	O'g'il bolalar uchun sviterlar, jemperlar, puloverlar	dona
189.	Erkaklar uchun shimlar, djinsi shimlar	dona
190.	O'g'il bolalar uchun shimlar, djinsi shimlar	dona
191.	Erkaklar uchun ko'ylaklar	dona
192.	O'g'il bolalar uchun ko'ylaklar	dona
193.	Erkaklar uchun maykalar	dona
194.	Erkaklar uchun trusiklar	dona
195.	Erkaklar uchun shortik va shalvarlar	dona
196.	Erkaklar uchun futbolkalar	dona
197.	Erkaklar uchun ich kiyim komplekti	dona
198.	Erkaklar paypog'i	juft
199.	O'g'il bolalar uchun maykalar	dona
200.	O'g'il bolalar uchun trusiklar	dona
201.	O'g'il bolalar uchun futbolkalar	dona
202.	O'g'il bolalar uchun shortilar	dona
203.	O'g'il bolalar uchun ich kiyim komplekti	dona
204.	O'g'il bolalar uchun paypoq, kolgotka, chulki-paypoq mahsulotlari	juft
205.	Erkaklar uchun sport kostyumi	komplekt
206.	O'g'il bolalar uchun sport kostyumi	komplekt
207.	Ayollar uchun qishki palto, kalta palto	dona
208.	Qiz bolalar uchun qishki palto, kalta palto	dona
209.	Ayollar uchun qishki kurtka	dona

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
210.	Ayollar uchun yengil (demisezon) kurtka	dona
211.	Ayollar uchun charm kurtka	dona
212.	Qiz bolalar uchun qishki kurtka	dona
213.	Qiz bolalar uchun yengil mavsumiy kurtka	dona
214.	Ayollar uchun shuba, kalta shuba	dona
215.	Ayollar uchun plash	dona
216.	Qiz bolalar uchun plash	dona
217.	Ayollar uchun milliy ustki kamzullar, xalatlar	dona
218.	Ayollar uchun kostyum (yubka yoki shim bilan birga)	komplekt
219.	Ayollar uchun ko'ylaklar	dona
220.	Qiz bolalar uchun ko'ylaklar	dona
221.	Ayollar uchun pidjaklar	dona
222.	Ayollar uchun sviterlar, jemperlar, puloverlar	dona
223.	Qiz bolalar uchun sviterlar, jemperlar, puloverlar	dona
224.	Ayollar uchun shimlar, djinsi shimlar	dona
225.	Qiz bolalar uchun shimlar, djinsi shimlar	dona
226.	Ayollar uchun trikolar, gamashlar, losinalar	dona
227.	Qiz bolalar uchun trikolar, gamashlar, losinalar	dona
228.	Ayollar uchun yubkalar	dona
229.	Ayollar uchun sorochkalar, bluzkalar	dona
230.	Qiz bolalar uchun yubkalar	dona
231.	Qiz bolalar uchun sorochkalar, bluzkalar	dona
232.	Ayollar uchun xalatlar, pijamalar	dona
233.	Qiz bolalar uchun xalatlar, pijamalar	dona
234.	Ayollar uchun maykalar	dona
235.	Ayollar uchun trusiklar, pantolonlar	dona
236.	Ayollar uchun byustgalterlar	dona
237.	Ayollar uchun tungi ko'ylaklar	dona
238.	Ayollar uchun futbolkalar	dona
239.	Ayollar uchun ich kiyim komplekti	dona
240.	Ayollar uchun kolgotkalar, chulki-paypoq mahsulotlari	dona
241.	Qiz bolalar uchun maykalar	dona
242.	Qiz bolalar uchun trusiklar, pantolonlar	dona
243.	Qiz bolalar futbolkalari	dona
244.	Qiz bolalar uchun paypoq, kolgotka, chulki-paypoq mahsulotlari	juft
245.	Ayollar uchun sport kostyumi	komplekt
246.	Qiz bolalar uchun sport kostyumi	komplekt

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
247.	Yo'rgaklar	dona
248.	Go'daklar uchun issiq kombinezonlar, kurtkalar	dona
249.	Go'daklar uchun ich kiyimlar, chulki-paypoq mahsulotlari	dona
250.	Shlyapalar, kepkalar, do'ppilar	dona
251.	Trikotaj shapkalar	dona
252.	Erkaklar uchun mo'ynali shapkalar	dona
253.	Ayollar uchun mo'ynali shapkalar	dona
254.	Sharflar, ro'mollar, sholro'mollar va shu kabi buyumlar	dona
255.	Qo'lqoplar, varejkalar	juft
256.	Kamarlar, belbog'lar	dona
257.	Galstuklar va kapalaknusxa galstuklar	dona
258.	Dastro'mollar	dona
259.	Iplar	g'altak
260.	Yigirilgan iplar	100 gr
261.	Kimyoviy tozalash xizmatlari	1 xizmat
262.	Kiyim tikish	1 xizmat
263.	Kiyimlarni ta'mirlash	1 xizmat
264.	Kiyimlarni ijaraga berish	1 xizmat
265.	Erkaklar uchun issiq etiklar va botinkalar	juft
266.	Erkaklar uchun yengil (demisezon) etiklar va botinkalar	juft
267.	Erkaklar uchun tuflilar	juft
268.	Erkaklar uchun bosonokkalar, sandallar, sandaletlar	juft
269.	Erkaklar uchun krossovkalar va shu kabi poyafzallar	juft
270.	Erkaklar uchun uyda kiyiladigan poyafzal	juft
271.	Kalishlar	juft
272.	Ayollar uchun issiq etiklar va botinkalar	juft
273.	Ayollar uchun yengil (demisezon) etiklar va botinkalar	juft
274.	Ayollar uchun tuflilar	juft
275.	Ayollar uchun bosonokkalar, sandallar, sandaletlar	juft
276.	Ayollar uchun krossovkalar va shu kabi poyafzallar	juft
277.	Ayollar uchun uyda kiyiladigan poyafzal	juft
278.	O'g'il bolalar uchun etiklar, botinkalar	juft
279.	Qiz bolalar uchun etiklar, botinkalar	juft
280.	O'g'il bolalar uchun tuflilar	juft
281.	Qiz bolalar uchun tuflilar	juft
282.	O'g'il bolalar uchun bosonokkalar, sandallar, sandaletlar	juft
283.	Qiz bolalar uchun bosonokkalar, sandallar, sandaletlar	juft

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
284.	Yosh bolalar uchun krossovkalar va shu kabi poyabzallar	juft
285.	Yosh bolalar uchun uyda kiyiladigan poyabzal	juft
286.	Poyabzal ta'mirlash	1 xizmat
	Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'ichlari	
287.	Kvartirani ijaraga olgan shaxslar tomonidan asosiy turar joy uchun to'lanadigan amaldagi ijara haqi	1 oy uchun ijara to'lovi
288.	Sement	1 kg
289.	Metall quvurlar, otvodlar, sgonlar, muftalar	dona
290.	Plastmassadan yasalgan quvurlar, sgonlar, muftalar	dona
291.	Qurilish uchun quruq qorishmalar (shpaklovka, alebastr)	kg
292.	Barcha turdagi bo'yoqlar	kg
293.	Barcha turdagi laklar	kg
294.	Suyultirgichlar, erituvchi suyuqlik	1 litr
295.	Barcha turdagi yelimlar	kg
296.	Gulqog'ozlar, devorlar uchun barcha turdagi plenalar	10 metr rulon
297.	Faner, DSP, press-karton, orgalit plitalar, mebel shchitlari, shpon	1m ²
298.	Reykalar, plintuslar, shtapiklar	metr
299.	Eshik va derazalar uchun ilgaklar, tutqichlar, naveslar, eshik va derazalar uchun qulflar, kalitlar va boshqa furnitura	dona
300.	Sirt qoplash uchun kafel, keramik plitkalar	1m ²
301.	Linoleum, plastik plitalar	1m ²
302.	Deraza oynasi	1m ²
303.	Jo'mraklar, aralashtirgichlar, ventillar va ularning detallari	dona
304.	Slesarlar va santexniklarning xizmatlari	1 xizmat
305.	Elektriklarning xizmatlari	1 xizmat
306.	Bo'yash ishlari	1 xizmat
307.	Sovuq suv va kanalizatsiya uchun haq to'lash	1m ³
308.	Maishiy chiqindi uchun haq to'lash	1 kishi uchun, oyiga
309.	Ko'p xonadonli uylarda ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lash	1m ²
310.	Elektr energiyasi uchun haq to'lash	kvt/soat
311.	Tarmoq gaz uchun haq to'lash	1m ³
312.	Suyultirilgan gaz uchun haq to'lash	kg
313.	Ko'mir	1 tonna
314.	Issiq suv ta'minoti uchun haq to'lash	1m ³
315.	Markaziy isitish uchun haq to'lash	1m ²

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
	Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	
316.	Mehmonxona va yemakxonalar uchun mebellar to'plami	1 komplekt
317.	Yotoqxonalar uchun mebellar to'plami	1 komplekt
318.	Oshxona uchun mebellar to'plami	1 komplekt
319.	Yumshoq mebellar to'plami	1 komplekt
320.	Stenkalar, servantlar, gorkalar	1 komplekt
321.	Shkaflar	dona
322.	Stollar	dona
323.	Stullar	dona
324.	Krovatlar	dona
325.	Yoritish uskunolari	dona
326.	Jun va yarim jun gilamlar	1m ²
327.	Sintetik paloslar	1m ²
328.	Ko'zgular	dona
329.	Jalyuzalar	1m ²
330.	Mebellarni, uy-ro'zg'or asboblarini va tukli gilamlarni ta'mirlash va o'rnatish	1 xizmat
331.	Ko'rpa-to'shak belyosi va shu kabilarni tikish uchun ip gazlamalar	metr
332.	Tyul va gardinabop tyul mahsulotlari	metr
333.	Ko'rpa-to'shak to'plami	komplekt
334.	Ko'rpacha (paxtali, junli, parli)	dona
335.	Dasturxonlar	dona
336.	Sochiqlar	dona
337.	Uy xo'jaliklarida ishlatiladigan to'qimachilik mahsulotlarini tikish bo'yicha xizmatlar	1 xizmat
338.	Yirik oshxona priborlari	dona
339.	Kir yuvish va quritish uchun yirik priborlar	dona
340.	Isitgichlar, konditsionerlar	dona
341.	Chang yutkichlar	dona
342.	Ovqat tayyorlash va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish uchun kichik elektr jihozlari	dona
343.	Ichimliklar tayyorlash uchun kichik priborlar	dona
344.	Kichik maishiy priborlar	dona
345.	Maishiy priborlarni ta'mirlash va o'rnatish	1 xizmat
346.	Maishiy priborlarni ijaraga berish	1 kunlik ijaraga
347.	Shisha idishlar	dona
348.	Chinni va fayans idishlar	dona

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
349.	Zanglamaydigan po'latdan ishlangan ovqatlanish uchun priborlar	dona
350.	Kastriyullar	dona
351.	Qozonlar	dona
352.	Tovalar	dona
353.	Choynak	dona
354.	Belkuraklar, ketmonlar, panshaxalar, xaskashlar	dona
355.	Bolg'alar, teshalar, boltalar, iskanalar	dona
356.	Otvyorkalar, ombirlar, qisqichlar va boshqalar	dona
357.	Karnizlar	metr
358.	Elektr lampochkalar	dona
359.	Elektr batareykalar	dona
360.	Xo'jalik sovuni	300 gr
361.	Kir yuvish kukuni	kg
362.	Tozalash vositalari	500 gr
363.	Tozalash uchun buyumlar (supurgilar, cho'tkalar, lattalar, qo'lqoplar va shu kabilar)	dona
364.	Mixlar, shuruplar, boltlar, strubsinalar va shu kabi maydachuyda metall buyumlar	kg
365.	Yelimli chelak	dona
366.	Gugurt	1 quti
367.	Ignal, to'g'nog'ich, spitsa va shu kabi buyumlar	dona
368.	Gilamlar va gilam mahsulotlarini yuvish va tozalash bo'yicha xizmatlar	1m ²
369.	Dezinfektsiyalash va zararkunandalarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar	1m ²
	Sog'liqni saqlash	
370.	Vitaminlar	10 tabletka
371.	Antibiotiklar	10 tabletka
372.	Antigistamin preparatlar	10 tabletka
373.	Tomir kengaytiruvchi preparatlar	10 tabletka
374.	Shamollashga qarshi dori vositalari	10 tabletka
375.	Antiseptik dori vositalari	dona
376.	Tibbiyot diagnostika mahsulotlari	dona
377.	Tibbiyot maskalari va perchatkalari	dona
378.	Shpritslar	dona
379.	Bintlar va shu kabi yara bog'lash materiallari	dona
380.	Ko'z uchun yordamchi mahsulotlar	dona
381.	Immunizatsiya bo'yicha xizmatlar	1 xizmat

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
382.	Davolovchi massaj	1 xizmat
383.	Stomatologik profilaktik xizmatlar	1 xizmat
384.	Ambulatoriyada davolash va reabilitatsiya xizmatlari	1 xizmat
385.	Statsionar davolash va reabilitatsiya xizmatlari	1 xizmat
386.	Tibbiyot laboratoriyalari xizmatlari	1 xizmat
387.	Diagnostika vizualizatsiyasi xizmatlari	1 xizmat
	Transport	
388.	Yengil avtomobillar	dona
389.	Velosipedlar	dona
390.	Shinalar	dona
391.	O't oldirish svehasi	komplekt
392.	Akkumulyator	dona
393.	Benzin	1 l
394.	Shaxsiy transport vositalari uchun propan	1 l
395.	Shaxsiy transport vositalari uchun metan	kub.m.
396.	Motor moylari, jumladan avtol	1 l
397.	Tormoz suyuqligi, ulovchi mexanizm uchun suyuqlik	1 l
398.	Sovutuvchi suyuqliklar va qo'shimchalar	1 l
399.	Shaxsiy transport vositalarini yuvish bo'yicha xizmatlar	1 xizmat
400.	Shaxsiy transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash	1 xizmat
401.	Avtomobil to'xtash joylari xizmatlari	1 soat
402.	Haydovchilikka tayyorlash bo'yicha kurslar	to'liq kurs
403.	Shahar atrofidagi poyezdda yo'l haqi	1 martalik qatnov
404.	Uzoq masofaga qatnaydigan poyezdda yo'l haqi	1 martalik qatnov
405.	Metroda yo'l haqi	1 martalik qatnov
406.	Tramvayda yo'l haqi	1 martalik qatnov
407.	Shaharlararo avtobusda yo'l haqi	1 martalik qatnov
408.	Shahar avtobusida yo'l haqi	1 martalik qatnov
409.	Trolleybusda yo'l haqi	1 martalik qatnov
410.	Yo'nalishli taksida yo'l haqi	1 martalik qatnov
411.	Taksida yo'l haqi	1 martalik qatnov
412.	Ichki yo'lovchi havo transporti	1 martalik qatnov

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
413.	Xalqaro yo'lovchi havo transporti	1 martalik qatnov
414.	Kuryerlik xizmatlari va posilkalarni eltib berish bo'yicha xizmatlar	1 xizmat
415.	Tashish (ko'chish) va saqlash bo'yicha xizmatlar	1 xizmat
416.	Tayyor ovqatlarni yetkazib berish xizmati	1 xizmat
	Axborot va aloqa	
417.	Mustahkam o'rnatilgan (turg'un) telefon uskunolari	dona
418.	Mobil telefon uskunolari	dona
419.	Noutbuk	dona
420.	Kompyuterlar va planshetlar	dona
421.	Periferik uskunalar va ularning sarflash komponentlari	dona
422.	Televizor	dona
423.	Boshqa ovoz va tasvirlarni qabul qilish, yozib olish va aks ettirish uchun uskunalar	dona
424.	Mustahkam o'rnatilgan (turg'un) aloqa xizmatlari uchun telefon abonent to'lovi	bir oy uchun
425.	Mobil aloqa xizmatlari	tarif reja
426.	Simli internet uchun abonent to'lovi	tarif reja
427.	Mobil internet uchun abonent to'lovi	bir oy uchun
428.	Kompleks telekommunikatsiya xizmatlari	bir oy uchun
429.	Axborot va kommunikatsiya uskunalarini ta'mirlash	1 xizmat
	Dam olish, sport va madaniyat	
430.	Yumshoq o'yinchoqlar	dona
431.	Uch g'ildirakli velosipedlar, samokatlar	dona
432.	Bolalar uchun plastmassa o'yinchoqlar	dona
433.	Sport uchun jihozlar	dona
434.	Ryukzaklar	dona
435.	Gul tuvaklar	dona
436.	Tabiiy gullar	dona
437.	Video-fotosurat xizmatlari	1 xizmat
438.	Uy hayvonlari uchun veterinariya va boshqa xizmatlar	1 xizmat
439.	Madaniyat va istirohat bog'lari xizmatlari	1 chipta
440.	Sport tadbirlarini tashkil etish bo'yicha xizmatlar	bir oy uchun
441.	Kinoteatrlarning xizmatlari	1 chipta
442.	Teatrlarning xizmatlari	1 chipta
443.	Konsert zallarining xizmatlari	1 chipta
444.	Muzeylarning xizmatlari	1 chipta

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
445.	Hayvonot bog'larining xizmatlari	1 chipta
446.	Fotografiya (suratga olish) sohasidagi xizmatlar	1 xizmat
447.	To'y va boshqa tadbirlarni o'tkazish uchun joy ijarasiga haq to'lash	1 kunlik ijara
448.	Taklifnomalar va otkritkalar chop etish xizmatlari	dona
449.	Zargarlik xizmatlari	1 xizmat
450.	Kitoblar	dona
451.	Har hafta chiqadigan gazetalar (chakana sotuvda)	dona
452.	Har oy chiqadigan jurnallar (chakana sotuvda)	dona
453.	Maktab daftari	dona
454.	A4 formatdagi qog'oz	500 varaq
455.	Rasm daftari	dona
456.	Sharikli ruchka	dona
457.	Rangli qalamlar	dona
458.	Flomasterlar to'plami	to'plam
459.	Rassomlar uchun bo'yoqlar	to'plam
460.	Daftarlar, kitoblar, hujjatlar uchun muqova (jild)	dona
461.	Yelim	dona
462.	Turistik sayohat	1 kun
Ta'lim sohasidagi xizmatlar		
463.	Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	bir oy uchun
464.	Nodavlat (xususiy) maktabgacha ta'lim tashkiloti	bir oy uchun
465.	Shartnoma asosida davlat OTMda o'qish	semestr
466.	Shartnoma asosida nodavlat OTMda o'qish	semestr
467.	Repetitorlik	1 soat uchun
468.	Chet tili kurslarida va shu kabi kurslarda mashg'ulot	1 soat uchun
Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari		
469.	Kafedagi tayyor taomlar	1 kishi uchun to'liq tushlik
470.	Oshxonadagi tayyor taomlar	1 kishi uchun to'liq tushlik
471.	Boshqa oshxonalar, kafeteriyalar va gazakxonalar	dona
472.	Otellar, motellar, mehmonxonalar va shu kabi mehmonxona xizmatlari	1 kun
473.	Dam olish markazlari, kempinglar, yoshlar yotoqxonalar va shu kabi mehmonxona xizmatlari	1 kun
Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar		
474.	Mikromoliyaviy tashkilotlar va lombardlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar	1 xizmat
475.	Shaxsiy transport vositalarini sug'urtalash	1 xizmat

T/R	Tovarlar va xizmatlar nomi	O'lchov birligi
476.	Banklar kreditlarini sug'urtalash	1 xizmat
477.	Bank muassasalari xizmatlari	1 xizmat
478.	Pul o'tkazmalari uchun haq to'lash	1 xizmat
479.	Elektron to'lov tizimlari orqali pul vositalarini o'tkazish bo'yicha xizmatlar	1 xizmat
	Maishiy tovarlar va xizmatlar, ijtimoiy himoya va turli tovarlar va xizmatlar	
480.	Fenlar	dona
481.	Ustara, soqol olish uchun lezviya	dona
482.	Tish cho'tkalari	dona
483.	Tish pastalari	75 gr
484.	Tualet qog'ozi	dona
485.	Soch uchun shampunlar	250 ml
486.	Soch uchun bo'yoqlar	dona
487.	Atir sovun	150 gr
488.	Soqol olish uchun ko'pik, krem, gel	1 flakon
489.	Atir, pardozi suvi, odekolon	1 flakon
490.	Dezodorant	1 flakon
491.	Upa	dona
492.	Lab bo'yog'i	dona
493.	Bolalar uchun tagliklar	dona
494.	Qo'l va yuz uchun kremlar	1 tyubik
495.	Ayollar va qizlar uchun sartaroshxona xizmatlari	1 xizmat
496.	Erkaklar va o'g'il bolalar uchun sartaroshxonalar xizmatlari	1 xizmat
497.	Kosmetologlar xizmatlari	1 xizmat
498.	Hammom va dushxonalar xizmatlari	1 xizmat
499.	Qo'l soatlari, cho'ntak soatlari va sekundomerlar	dona
500.	Qimmatbaho metallardan yasalgan nikoh uzuklari	1 gramm
501.	Soatlarni ta'mirlash	1 xizmat
502.	Ayollar sumkalari	dona
503.	O'quvchilar sumkalari, jumladan portfellar, ranetslar, ryukzaklar	dona
504.	Chemodanlar va yo'l sumkalari	dona
505.	Bolalar aravachalari	dona
506.	Quyoshdan saqlaydigan ko'zoynaklar	dona
507.	Yomg'irdan va quyoshdan saqlovchi soyabonlar	dona
508.	Diniy xizmatlar	1 xizmat
509.	Huquqiy tusdagi xizmatlar	1 xizmat
510.	Hujjatlardan nusxa ko'chirish (kserokopiyalash) bo'yicha xizmatlar	1 xizmat

“Tovarlar va xizmatlarning
iste'mol narxlari (tariflari)
kuzatuvini tashkil etish hamda
indekslarni hisoblash bo'yicha
uslubiy nizom”ga
5-ilova

Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari indeksini (INI) hisoblash va e'lon qilish mexanizmi

Bosqichlar	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ullar
I bosqich	Tovarlar va xizmatlarning vaznlar tuzilmasini shakllantirish	1. Vaznlar tuzilmasini shakllantirish uchun uy xo'jaliklari kuzatuvlari ma'lumotlari asosida iste'mol xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish; 2. Iste'mol xarajatlari to'g'risida shakllantirilgan ma'lumotlarni Narxlar statistikasi boshqarmasiga taqdim etish.	Statistika dasturida belgilangan muddatlarda ma'lumotlar tayyor bo'lganidan so'ng bir kun muddatda	Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi boshqarmasi
II bosqich	INI hisoblash uchun birlamchi ma'lumotlarni to'plash	1. Savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari tanlanmasi bo'yicha narx kuzatuvlarini tashkil etish va ma'lumotlarni planshet qurilmasiga qayd etish; 2. Muqobil axborot manbaalaridan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash.	har oyning 10-20 sanalari har oyning 10-20 sanalari	Hududiy statistika bo'limlari Narxlar statistikasi boshqarmasi
III bosqich	INI shakllantirish	1. To'plangan birlamchi ma'lumotlarni Stata dasturida umumlashtirish, qayta ishlash va tahlil qilish; 2. INI bo'yicha yakuniy ma'lumotlarni shakllantirish va e'lon qilish.	har oyning 10-25 sanalari Statistika dasturida belgilangan muddatlarda	Narxlar statistikasi boshqarmasi, Hududiy statistika boshqarmalari
IV bosqich	Yakuniy ma'lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazish	1. INI to'g'risida press-reviz e'lon qilish; 2. SIAT axborot tizimida yakuniy jadvallarni e'lon qilish orqali foydalanuvchilarga yetkazish; 3. Agentlikning ichki foydalanuvchilariga narx indekslari to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish.	Statistika dasturida belgilangan muddatlarda Reja-jadvalga asosan	Narxlar statistikasi boshqarmasi